Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qiliş – oliy burçimiz!

2026-yil 27-noyabr / juma / № 48 (4794)

# POSTDA

Gazeta 1930-yil 12-maydan çiqa boşlagan

НА ПОСТУ AT THE POST

Özbekiston Respublikasi
Içki işlar vazirligi naşri

# TOĞLI HUDUDDAGI ZAMONAVIY XAVFSIZLIK




2

## UŞBU SONDA:

### RUHIYAT POSBONLARI TERMIZDA BELLAŞDI




5

### KIÇKINTOY KRIMINALISTLAR




«Bolajon» ilovasi 11–14



XON SAROYIDAN BOŞLANGAN AN'ANA

17

# Qöriqlaş xizmatlari sifatini oşiriş va qamrovini kengaytiriş çoralari körib çiqildi

## Prezident Şavkat Mirziyoyev qöriqlaş xizmatlari sifati va qamrovi darajasini oşiriş yuzasidan taqdimot bilan tanişdi

Sönggi ön yilda mamlakatimizda ijtimoiy va savdo obyektlari soni 150 mingdan 500 mingtaga, uy-joylar soni esa 1,5 milliondan 8 milliontaga köpaydi. Tun-u kun faoliyat yuritadigan savdo va xizmat körsatiş köçalari soni 255 taga yetdi.

«Xavfsiz şahar», «Xavfsiz poytaxt», «Obod va xavfsiz mahalla» hamda «Xavfsiz xonadon» dasturlari doirasida jamoat xavfsizligini ta’minlaş, jinoyatçilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini oliş böyiça qator işlar amalga oşirildi.

Xususan, qöriqlaş obyektlarining soni 194 mingtadan 337 mingtaga, tezkor harakatlanuvçi guruhlar soni esa 533 tadan 630 taga yetkazildi, 6,5 mingta mahallada patrullik xizmati yölga qöyilib, 58 ming nafar qorovulning malakasi oşirildi.

Qolaversa, qöriqlaş xizmatlarining bugungi qamrovi va turlari aholi hamda tadbirkorlarning ortib borayotgan ehtiyojlarini töliq qondirmayapti.

Xizmatlar asosan davlat obyektlarini qöriqlaş bilan çeklanib qolayotgani, sohada soğlom raqobat muhitini şakllantiriş va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalaniş zarurligi qayd etildi.

Şu bois, taqdimotda qöriqlaş faoliyatining huquqiy asoslarini takomillaştiriş, aholi, tadbirkorlar, investorlar va sayyohlarning xavfsizligini, mol-mulkining işonçli himoyasini ta’minlaşga qaratilgan kompleks çora-tadbirlar körib çiqildi.

Avvalo, sohani töliq raqamlaştiriş, mavjud beşta axborot tizimini birlaştirgan holda «Raqamli qöriqlaş» yagona axborot tizimini joriy etiş taklif qilindi.

Mazkur tizim orqali qöriqlaş xizmatlari böyiça şartnomalarni elektron şaklda rasmiylaştiriş, tölovlarga oid ma’lumotlarni onlayn oliş, tezkor guruhlarning harakatini real vaqt rejimida kuzatiş imkoniyati yaratiladi.

Şuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida ehtimoliy xavf-xatarlarni oldindan aniqlaş va ularning oldini oliş, qöriqlaş bölinmalari faoliyatini samarali boşqariş yölga qöyiladi.

Bugungi kunda mavjud oltita xizmat turiga qöşimça ravişda sakkizta zamonaviy xizmat turini joriy etiş taklifi bildirildi.

«Aqlli va xavfsiz uy» konsepsiyasi asosida xonadonlarga zamonaviy nazorat qurilmalarini örnatiş va ularga texnik xizmat körsatiş, mobil qurilmalar orqali tezkor yordam çaqiriş imkoniyatini beruvçi virtual «SOS» tizimidan foydalaniş közda tutilmoqda.

Investorlar, sayyohlar va tadbirkorlarga tansoqçilik xizmatlarini körsatiş, oilaviy va boşqa tadbirlarda jamoat tartibini saqlaş, uçuvçisiz uçiş apparatlari yordamida kuzatuvni amalga oşiriş, mavsumiy faoliyat yurituvçi obyektlarni qöriqlaş kabi xizmatlarni yölga qöyiş rejalaştirilgan.

Yangi qurilayotgan obyektlarni qöriqlaşning muhandislik-texnik vositalari bilan jihozlaş böyiça yagona talablarni belgilaş, şaharsozlik normalariga tegişli özgartirişlar kiritiş taklif etildi.

Fuqarolarning mol-mulklarini himoya qiliş maqsadida köp kvartirali uylarda texnik qöriqlaş (domofon va taşviş tugmalarini örnatiş) xizmatidan foydalaniş amaliyotini joriy etiş nazarda tutilmoqda.

Qöriqlaş sohasida xususiy sektor imkoniyatlaridan keng foydalaniş uçun zarur huquqiy va taşkiliy şaroitlarni yaratiş böyiça takliflar bildirildi.

Jumladan, xususiy taşkilotlar tomonidan qöriqlaşning texnik vositalarini örnatiş, sozlaş va ularga xizmat körsatişning yagona tartibi va talablarini belgilaş közda tutilgan.

Qöriqlaşning zamonaviy texnik vositalarini mahalliylaştiriş, milliy dasturiy ta’minot va qurilmalar işlab çiqarişni kengaytiriş böyiça rejalar taqdim etildi.

Qayd etilganidek, mahalliylaştiriş darajasini 30 foizdan 60 foizga, qurilmalar işlab çiqariş quvvatini oyiga 10 mingtadan 30 mingtaga yetkaziş hisobiga ularning tannarxini 1,7 barobar arzonlaştiriş imkoniyati mavjud.

Sohada soğlom raqobat muhitini şakllantiriş maqsadida Milliy gvardiyaning qöriqlaş faoliyatiga oid vakolatlarini kengaytiriş masalasi ham körib çiqildi.

Xususan, Milliy gvardiya tomonidan qöriqlanişi mumkin bölgan obyektlar turlarini 13 tadan 24 taga yetkaziş, jismoniy va texnik qöriqlaş, tansoqçilik hamda turli tadbirlarda jamoat tartibini saqlaş böyiça xizmatlar körsatiş imkoniyatlarini kengaytiriş taklif qilindi.

Şu bilan birga, majburiy tartibda qöriqlanişi lozim bölgan obyektlar toifalarini qonunçilikda belgilaş, idoraviy qöriqlaş bölinmalarining huquq-tartibot organlari bilan özaro hamkorligi tartibini takomillaştiriş nazarda tutilmoqda.

Taklif etilayotgan çora-tadbirlar natijasida 2027-yilda qöriqlaşga olingan obyektlar sonini 600 mingtaga, tezkor harakatlanuvçi guruhlar sonini 800 taga yetkaziş, qöşimça 1,5 mingta mahallada patrullik xizmatini taşkil etiş maqsadida qöriqlaş xizmati xodimlari sonini 8 mingtaga oşiriş maqsad qilingan.

Davlatimiz rahbari qöriqlaş tizimini takomillaştirişda, avvalo, inson manfaatlari, aholining osoyiştaligi va mol-mulki daxlsizligini ta’minlaş ustuvor vazifa bölişi lozimligini ta’kidladi.

Mutasaddilarga aholi uçun sifatli va hamyonbop xizmatlarni yölga qöyiş hamda mas’ul idoralarning xalq va davlat manfaatlaridan kelib çiqib, hamjihatlikda işlaşini ta’minlaş böyiça topşiriqlar berildi.

**UzA**

## HAFTA XABARLARI

### Özbekiston va Iordaniya strategik şeriklik örnatdi

Özbekiston va Iordaniya örtasida strategik şeriklik munosabatlarini örnatiş töğrisida bitim imzolandi. Davlat taşrifi doirasida jami 19 ta hujjat qabul qilindi. Kelişuvlar savdo, investitsiya, toğ-kon, energetika, suv xöjaligi, farmatsevtika, raqamlaştiriş va boşqa sohalarni qamrab oldi. Şuningdek, 300 turdagi tovarga imtiyozli bojxona stavkalarini qöllaş va özaro savdoni 500 million dollarga yetkaziş maqsad qilindi.

### Tadbirkorlikni qöllab-quvvatlaşning yangi tizimi taklif etildi

Mikro, kiçik va örta biznesni rivojlantiriş, korxonalarni yirik biznes darajasiga olib çiqiş hamda aholi daromadlarini oşiriş böyiça yangi mexanizmlar körib çiqildi. Hududlarda 81 trillion sömlik 1 mingta loyihani amalga oşiriş orqali 320 ming iş örni yaratiş rejalaştirilgan. Tadbirkorlarga kredit, kafolat, lizing, faktoring va investitsiya vositalari orqali kompleks kömak beriş, biznesni taşqi bozorlarga olib çiqiş uçun xizmatlar taşkil etiş taklif qilindi.

### Toşkentda 45 dan ortiq mamlakat vakillari iştirokida turizm forumi ötkazilmoqda

Toşkentda 31-xalqaro turizm yarmarkasi – «Turizm – Ipak yölida» va birinçi Xalqaro turizm investitsiya forumi bölib ötmoqda. 25 – 27-noyabr kunlari CAEx körgazma majmuasida ötayotgan tadbirlarda 45 dan ortiq mamlakat, 600 dan ziyod xorijiy kompaniya va 20 ga yaqin xalqaro taşkilot vakillari iştirok etmoqda. Forum doirasida turizm infratuzilmasiga investitsiya jalb qiliş, yangi sayyohlik yönalişlarini oçiş, xalqaro hamkorlik va sohani raqamlaştiriş masalalari muhokama qilinmoqda. Özbekistonning 14 hududi turistik salohiyati, tarixiy-madaniy merosi, tabiiy maskanlari va yangi turizm mahsulotlari taqdim etilmoqda. Bugun, 27-noyabr kuni Toşkentda BMT Turizm taşkiloti bilan hamkorlikda 2027-yilni «Barqaror va bardoşli turizm xalqaro yili» deb e’lon qiliş taşabbusining rasmiy oçiliş marosimi ham ötkazilişi rejalaştirilgan.

### Çorvaçilikda ozuqa yetiştiriş 2030-yilgaça 90 million tonnaga yetkaziladi

Özbekistonda çorva uçun ozuqa yetiştiriş hajmini 2027-yilda 64,5 million tonnaga, 2030-yilga borib 90 million tonnaga yetkaziş rejalaştirilmoqda. Hozir yiliga 48 million tonna ozuqa yetiştiriladi, bu ehtiyojni töliq qoplamaydi. Ozuqa xarajatlari göşt tannarxining 30 foizini taşkil etmoqda. Yangi çoralar orqali çorva mahsuldorligini oşiriş, qöşimça 400 ming tonna göşt yetiştiriş va bozorda narxlar barqarorligini ta’minlaş közda tutilgan.

**Musulmon ZIYO tayyorladi.**

Obod manzillar

# TOĞLI HUDUDDAGI ZAMONAVIY XAVFSIZLIK




**Yurtimiz toğlari bağridagi sölim va xuşmanzara göşalardan biri – Toşkent viloyati Parkent tumani «Kumuşkon» mahallasida joylaşgan «Oltinbel» sayyohlik majmuasi musaffo havosi, betakror tabiat manzaralari hamda yuqori darajada zamonaviy xizmat körsatiş imkoniyatlarini özida mujassam etganligi bilan qisqa vaqt içida yurtimizning turli hududlaridan taşrif buyuruvçi sayyohlarning sevimli maskaniga aylandi.**

Sayyohlik majmuasi bir vaqtning özida 6 ming nafargaça taşrif buyuruvçilarga sifatli xizmat körsatiş imkoniyatiga ega. Bu yerda 4 ta zamonaviy beş qavatli mehmonxona, har biri alohida basseynga ega bölgan 51 ta şinam dam oliş uyi, şuningdek, 350 va 700 örinli restoranlar barpo etilgan. Bundan taşqari, 2200 kvadrat metr maydonni egallagan zamonaviy akvapark, 14 turdagi attraksionlar, 650 metr uzunlikdagi ziplayn, karting va rodelban yölaklari, 800 örinli amfiteatr, sun'iy köl, hayvonot boği hamda sport inşootlari mehmonlar ixtiyorida.

Albatta, bunday yirik va murakkab toğli hududda xavfsizlikni ta'minlaş, fuqarolar xotirjam vaqt ötkazişiga erişiş özига xos yondaşuv, yuqori şaylik va zamonaviy texnik imkoniyatlarni talab etadi. Şu maqsadda sayyohlik majmuasida Parkent tumani IIB huzuridagi Qöriqlaş bölimi xodimlari tomonidan tun-u kun faoliyat yurituvçi qöriqlaş-patrul xizmati taşkil etilgan. Xizmat xodimlari belgilangan tartib asosida har kuni uzluksiz rejimda faoliyat olib borib, hududda muntazam patrullik tadbirlarini amalga oşiradilar.

E'tiborli jihati şundaki, Qöriqlaş bölimi xodimlarining vazifasi faqatgina hududni közdan keçiriş va tartibni saqlaş bilan çeklanib qolmaydi. Sayyohlik majmuasida sohaviy xizmatning maxsus jihozlangan «Isuzu» rusumli yöltanlamas avtomobili tezkor harakatlanuvçi guruh faoliyati yölga qöyilgan. Uşbu zamonaviy avtomobil murakkab toğ yöllarida harakatlaniş, olis manzillarga ham tez yetib boriş imkonini beradi.

Hududning tabiiy va geografik xususiyatlari inobatga olinib, xizmat avtomobili favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga dastlabki amaliy yordam körsatiş uçun zarur qutqaruv va texnik vositalar bilan töliq jihozlangan. Jumladan, tungi vaqtda xavfli hududlarni yoritiş va qutqaruv tadbirlarini taşkil etiş uçun kuçli yoritiş uskunalari, şoşilinç holatlarda birinçi tibbiy yordam körsatiş uçun töliq jamlangan tibbiy quti va yölda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etişga kömaklaşuvçi boşqa texnik anjomlar mavjud.

«Oltinbel» sayyohlik majmuasida yölga qöyilgan qöriqlaş-patrul xizmati bugungi kunda nafaqat jamoat tartibining işonçli kafolati, balki har bir taşrif buyuruvçi özini erkin, bexavotir va xotirjam his qilişi uçun mustahkam suyanç bölib xizmat qilmoqda.

**Abror POYONOV,**
**katta mutaxassis-muxbir,**
**katta serjant.**

*Toşkent viloyati.*

"Yaşil makon"

# "QAŞQADARYO TAJRIBASI"

## daraxt va buta köçatlarini innovatsion usullarda ekiş hamda parvarişlaş yölga qöyilmoqda

**"Yaşil makon" umummilliy loyihasini amalga oşirişda mahallalar rolini kuçaytiriş va hududlarning yaşillik darajasini tubdan oşirişga doir çora-tadbirlar ijrosini ta'minlaş maqsadida Qaşqadaryo viloyatida amaliy seminar bölib ötdi.**

Unda Qoraqalpoğiston Respublikasi IIV, Toşkent şahar va Toşkent viloyati IIBB hamda viloyatlar IIB boşliqlarining örinbosarlari – Jamoat xavfsizligi xizmati boşliqlari, Mahallalar uyuşmasi mutasaddilari, kadastr xizmati va örmon xöjaligi vakillari qatnaşdi. Tadbir davomida "Yaşil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Qaşqadaryo tajribasi" asosida daraxt va buta köçatlarini innovatsion usullarda ekiş hamda parvarişlaş yölga qöyilgan bir neçta namunaviy manzillar örganildi.

Dastlab mehmonlar Qarşi şahridagi "Çölquvar" mahallasida barpo etilgan yoşlar boğida bölişdi. Olti sotix maydondagi boğda ekilgan mevali va manzarali daraxtlarning agrotexnik qoidalar asosida parvarişlanayotgani, aholi uçun qulay ekologik muhit yaratilgani iştirokçilarda katta taassurot qoldirdi.

Şahardagi "Otçopar" mahallasida esa umummilliy loyiha doirasida har bir mahallada har bir odam uçun 3 ta daraxt, 30 foiz daraxt soyasi, 300 metr atrofida yaşil hudud bölişini ta'minlaşni nazarda tutuvçi "3–30–300" xalqaro standartini joriy qiliş böyiça izçil işlar olib borilmoqda. Mahalladagi böş yerlarga köçatlar va gullarni aralaş ekiş orqali





kökalamzorlaştiriş samaradorligi oşirilayotgani mehmonlar tomonidan yuqori baholandi.

Keyingi manzil Ğuzor tumanining "Qovçin" mahallasida 65 gektar maydonda barpo etilgan "Zamonaviy köçatçilik markazi" böldi. Beş bosqiçli tizim va xorijiy tajriba negizida taşkil etilgan uşbu yirik majmua viloyatda köçatçilikni rivojlantiriş, yaşil hududlar kölamini kengaytiriş hamda ekologik barqarorlikni ta'minlaşda muhim örin tutmoqda.

Markazning 50 gektarida manzarali, 5 gektarida mevali daraxtlar, 3 gektarida buta va gul köçatlari, qolgan qismida esa mahalliy iqlimga mos navlar yetiştirilmoqda. Loyihaning birinçi bosqiçida 1,6 million dona, keyingi bosqiçida esa bu körsatkiçni 5 million donaga yetkaziş rejalaştirilgan.

Muloqot çoğida viloyatda yölga qöyilgan köçatçilik tizimi davlatimiz rahbari tomonidan yuqori baholangani va bu ilğor tajribani mamlakatimizning boşqa hududlarida ham keng ommalaştiriş muhim ahamiyat kasb etişi ta'kidlandi. Çunki "Yaşil makon" loyihasining haqiqiy samarasi faqat köçat ekiş bilan emas, balki ularni asrab-avaylaş, parvarişlaş va yaşil hududlarga aylantiriş bilan ölçanadi. Şu bois boşqa hududlarda ham bu jarayonga mahalla faollari hamda profilaktika inspektorlarini keng jalb etiş, ular örtasida samarali hamkorlikni örnatiş zarurligi qayd etildi. Taşrif doirasida mehmonlar "Qovçin" mahallasidagi mikroörmon hududiga ramziy daraxt köçatlarini ekişdi.

Seminar qatnaşçilari Qamaşi davlat örmon xöjaligida ham bölib, bu yerda yetiştirilayotgan iqlimga çidamli mevali va manzarali daraxtlarning joylaşuvi, oraliq masofasi hamda suğoriş tarmoği bilan yaqindan tanişdilar.

Şundan söng mehmonlar Qamaşi tumani "Tinçlik" mahallasidagi Içki işlar bölimi boğida bölib, bu yerda ekilgan mingga yaqin köçatlarning parvarişi, tejamkor suğoriş tizimi va olib borilayotgan agrotexnik tadbirlar bilan tanişdilar.

Kunning ikkinçi yarmida seminar iştirokçilari Yakkaboğ tumanidagi "Jambul" mahallasiga xizmat körsatuvçi profilaktika inspektorining xizmat uyi oldida taşkil etilgan mikroörmonni közdan keçirdilar. Hududda amalga oşirilgan obodonlaştiriş va kökalamzorlaştiriş işlari atrof-muhitni muhofaza qiliş hamda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirişga xizmat qilayotgani e'tirof etildi.

Şuningdek, "Qaşqadaryo tajribasi"ning Şahrisabz şahridagi ijrosi doirasida "Pillakaşlik" mahallasida barpo etilgan "Yaşil sayilgoh" faoliyati örganildi.

Seminar yakunida "Yaşil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Qaşqadaryo tajribasi"ni boşqa hududlarda keng ommalaştirişga kelişib olindi.

**Sodiq RAHIMOV,**
**öz muxbirimiz.**

*Qaşqadaryo viloyati.*

POSTDA
НА ПОСТУ * AT THE POST

**Munosabat**

# FIDOYILIKKA ÇORLOVÇI DA'VAT

## Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyevning nabirasi Şavkatbekka yöllagan maktubini öqib



Bugun Özbekistondek jannatmonand yurtda yaşayotgan men kabi minglab yoşlarning burçi va vazifasi nimalardan iborat? Yurtimiz istiqboli, porloq kelajagi uçun yana qanday ezgu işlarga qöl urişimiz kerak?

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyevning öz nabirasiga yöllagan samimiy maktubini öqir ekanman, qalbimdan ana şunday savollar, ayni paytda mas'uliyatli öy-xayollar ötdi.

Tan oliş lozim, bu maktub şunçaki boboning nabirasiga yozgan oddiy xati emas, balki Yurt yölboşçisining nabirasi timsolida butun mamlakat yoşlariga, farzandlariga yöllagan yurak sözlari, hayotiy ögitlari va da'vatidir. Uşbu maktub Davlatimiz rahbarining mamlakat manfaati, "el oğirini yengil qiliş, muşkulini oson etiş" maqsadida xizmat safariga çiqqan, yurt taqdiri uçun jon kuydirib turgan bir pallada – samolyot bortida bitilgani bilan yanada ahamiyatlidir. Öşa mas'uliyatli lahzalarda ham Prezidentimiz farzandlarini – biz kabi yoşlarning ertangi kunini öylab, qimmatli ögitlarini qoğozga tuşirgan.

Uşbu hayotbaxş nasihatlar biz – içki işlar organlari yoşlari uçun ham beqiyos qadr-qimmatga ega. Bugungi kunda içki işlar organlari şaxsiy tarkibining deyarli 30 foizini yoşlar taşkil etadi. Tizimdagi ta'lim muassasalarida esa 8 ming nafarga yaqin öquvçi-yoşlar tahsil olmoqda.

Yurtboşimiz maktubda: *"Yaratgan Egam zimmamga şunday ulkan mas'uliyatni yuklagan ekan, şirin uyqudan, halovatdan voz keçmasam bölmaydi. Xalqim tunda osuda uxlaşi uçun ham men har doim bedor bölmoğim kerak, axir!"* deya ta'kidlagan. Bu sözlar sergaklik va yuksak fidoyilik ustiga qurilgan şarafli kasbimizning neçoğli mas'uliyatli ekanini, xalqimiz tinçligi va osoyiştaligi yölida xizmat burçimizni sidqidildan ado etişimiz zarurligini yana bir bor yodimizga soldi.

Maktubdagi *"...bu dunyoda millatning dardiga darmon bölişdan köra a'lo va afzal iş yöq"* degan jumlalar tizimda xizmat qilayotgan yoşlarni yangi marralar sari dadil qadam taşlaşga undaş barobarida, kasbimizning naqadar şarafli ekanini teran anglatdi. Axir el osoyiştaligini ta'minlab, jinoyatçilikka qarşi kuraşib, xalqimiz dardiga darmon bölişdan ortiq baxt bormi?!



Prezidentimiz biz, yoşlarga öz aql-zakovati bilan dunyoni özgartirgan, insoniyatga ustozlik qilgan buyuk allomalarning avlodi ekanimizni eslatib, qalbimizda ularning ölmas ruhi yaşayotganiga alohida urğu bergan. Bu yuksak işonç bizga yanada kuç-ğayrat bağişlab, buyuk ajdodlarga munosib voris bölişga çorlaydi.

Bugungi kunda sohada xizmat qilayotgan yoşlar nafaqat jamoat tartibini saqlamoqda, balki intellektual maydonlarda ham özlarining zukko va bilimli ekanliklarini amalda isbotlamoqda. Jumladan, şu yil 14–18-iyun kunlari Samarqand viloyatida taşkil etilgan "Yoşlar forumi"da tarkibiy va hududiy içki işlar organlaridan 170 nafar yoş xodim va harbiy xizmatçi qatnaşib, öz bilim va salohiyatini namoyiş etdi.

Maktubdagi: *"Yurt kelajagi sen kabi millionlab yoşlarga boğliq ekanini aslo unutma! Ilm-ma'rifat örganişga sidqidildan harakat qil! Çunki bilim va tafakkur bitmas-tuganmas boylikdir"* degan da'vat har birimizni muntazam izlanişga undaydi. Bugun tizimda xizmat qilayotgan zamonaviy bilimga ega yoş mutaxassislarning 150 nafari çet tili sertifikatiga ega, 73 nafari esa ilmiy-tadqiqot işlari bilan şuğullanmoqda.

Tizimda xizmat qilayotgan har bir yoş xodim uçun mamlakat xavfsizligi va milliy ğurur har narsadan ustun. Yoşlarimiz davlatimiz bayroğini jahon arenalarida ham baland kötarib, yurtimiz şa'nini munosib himoya qilişmoqda. Xususan, saflarimizda xizmat qilayotgan 478 nafar yoş xodim professional sport bilan muntazam şuğullanib, yuqori natijalarga erişmoqda. Ularning 76 nafari xalqaro toifadagi, 228 nafari esa milliy toifadagi "Sport ustasi" unvoniga erişgani barçamizga faxr bağişlaydi.

Fan-texnika jadal rivojlanayotgan bugungi zamonda vaqtning qadri tobora ortib bormoqda. Prezidentimizning *"Vaqt – şunday boylikki, uning bahosi yöq. Uni ortga qaytariş, tiklaş ham imkonsizdir"* degan fikrlari har birimizni har bir daqiqadan unumli foydalanişga undaydi.

Har yili minglab yoşlar içki işlar organlari safiga qabul qilinadi. Bu şunça yoş avlod vakili xalq osoyiştaligini ta'minlaş orqali yurtga naf keltirişni, kerak bölsa, Vatan uçun jonini fido qilişni oliy maqsad qilib tanladi, deganidir. Yurtboşimizning *"Sen ham kelajakda qaysi kasb-korni egallaşingdan qat'i nazar, Vatanga naf keltirmoqqa, el koriga yaramoqqa intil!"* degan ögitlari bizni öz vazifamizga yanada mas'uliyat bilan yondaşişga ruhlantiradi.

Maktubda Odamiylik – insonning asl ziynati ekani alohida qayd etilib, yoşlar har qanday vaziyatda ham insoniylik qiyofasini saqlab qolişga, mardlik, oriyat, halollik, kamtarlik, mehnatsevarlik va olijanoblik kabi fazilatlarni gavhardek asrab-avaylaşga çorlanadi.

Kunlar kelib, ortga nazar taşlaganimizda **"Xalqingga nafing tegdimi, Vataning – Özbekiston uçun nimalar qila olding?"** degan vijdon savoli qarşisida uyalib qolmaydigan, afsuslanmaydigan bölaylik. Şunday şarafli kasbni tanladikmi, taqdir zimmamizga şunday uluğvor vazifani yukladimi, unga har tomonlama munosib bölaylik.

Buning uçun hamjihatlik va birlikda millat ravnaqi, el tinçligi yölida fidoyilik körsataylik. Yurtboşimizning biz, yoşlarga qilgan murojaatini özimizga hayotiy dasturilamal qilib, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilaylik!

**Şahzod ABDUKARIMOV,**
**IIV Yoşlar ittifoqining yetakçilar kengaşi raisi, kapitan.**

**Mahalla tinç – yurt tinç**

# HAMJIHATLIK SAMARASI

**Pastdarğom tumanidagi "Gözalkent" MFY profilaktika katta inspektori, katta leytenant Sirojiddin Sayidmurodov hududda osoyiştalikni asraş, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini oliş hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qiliş yölida vazifasini vijdonan ado etayotgan xodimlardan biri. Uning har bir iş kuni mahalla ahli bilan muloqot qiliş, vaziyatni örganiş va aholi muammolariga yeçim izlaşdek ezgu maqsadlarga yöğrilgan.**

– Hududda 4100 nafar aholi istiqomat qiladi, – deydi mahalla fuqarolar yiğini raisi Abror Nasriddinov. – Bu yerda har bir xonadonning öz taşvişi, öz quvonçi bor. Profilaktika inspektorimiz Sirojiddin Sayidmurodov buni yaxşi anglagan holda, aholi bilan oçiq muloqot qilişga intiladi. Xonadonlarni örganib, fuqarolar bilan suhbatlaşiş, yoşlar bilan uçraşiş, huquqiy tuşuntirişlar olib boriş kundalik faoliyatining ajralmas qismiga aylangan.

Arzimagan kelişmovçilik ham öz vaqtida bartaraf etilmasa, katta muammoga aylanişi mumkin. Şu bois katta



leytenant Sirojiddin Sayidmurodov nizoli vaziyatlarni barvaqt aniqlaş, tomonlarni murosaga keltiriş va zarur hollarda mutasaddi taşkilotlar bilan hamkorlikda çora köriş orqali oilalar barqarorligini saqlaşga munosib hissa qöşmoqda.

– Mahallamiz tinç, odamlarimiz ahil-inoq, – deydi mahalla faoli Hamroqul Karimov. – Bunday totuvlik zamirida mahalla mutasaddilarining fidoyiligi mujassam. Biz oilalar tinçligini asraş, ajrimlarning oldini olişda doim yelkama-yelka işlaymiz.

Aslida odamlar orasida yurib, ularning dardini eşitiş, quvonçiga şerik böliş va muammosiga yeçim topiş oson iş emas. Buning uçun bilim bilan birga sabr, xuşmuomalalik, qat'iyat va eng muhimi, kasbga sadoqat talab etiladi. Bugun "Gözalkent"da hukm surayotgan tinçlik va osoyiştalik "Mahalla yettiligi"ning hamjihatlikdagi mehnati samarasidir.

**Umida MAMADALIYEVA,**
**öz muxbirimiz.**
*Samarqand viloyati.*

Körik-tanlov

# RUHIYAT POSBONLARI TERMIZDA BELLAŞDI

**Termiz şahrida Xalqaro psixologlar kuniga bağişlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda “Eng yaxşi psixolog–2026” körik-tanlovi ğoliblarini taqdirlaş marosimi ötkazildi.**




Inson qalbini anglaş, uning ruhiy keçinmalariga hamdard böliş va eng murakkab vaziyatlarda ham töğri psixologik yondaşuvni tanlaş har bir mutaxassisdan çuqur bilim, yuksak mas’uliyat va kasbiy mahorat talab etadi. Ayniqsa, el-yurt tinçligi va osoyiştaligini ta’minlaş yölida xizmat qilayotgan içki işlar organlari xodimlarining ruhiy barqarorligini mustahkamlaşda psixologlarning örni alohida ahamiyatga ega.

22-noyabr – Xalqaro psixologlar kuni munosabati bilan taşkil etilgan tadbirda Özbekiston Respublikasi Içki işlar vaziri örinbosari, polkovnik Diyorbek Sattarov, Termiz davlat universiteti rektori Abduqodir Toşqulov, vazirlikning mas’ul xodimlari, huquqni muhofaza qiluvçi organlar vakillari, oliy ta’lim muassasalari professor-öqituvçilari hamda amaliyotçi psixologlar iştirok etdi.

Tadbirda içki işlar organlarida psixologik xizmat sifatini oşiriş, xodimlarning ruhiy barqarorligini mustahkamlaş, zamonaviy psixodiagnostik usullarni amaliyotga joriy etiş hamda mutaxassislarning kasbiy salohiyatini yuksaltiriş tadbirning asosiy mavzulari sifatida e’tirof etildi.

Tanlovning respublika bosqiçida hududiy içki işlar organlari, IIV Akademiyasi, Jazoni ijro etiş departamenti hamda Qorovul qöşinlari qö-




mondonligidan saralab olingan 17 nafar iştirokçi öz bilim va mahoratini namoyon etdi. Hakamlar hay’ati tomonidan belgilangan mezonlar asosida baholangan iştirokçilar orasidan ğoliblar aniqlandi. Uçinçi örinni IIV Akademiyasi Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasi öqituvçisi, katta leytenant Azizjon Qodirqulov hamda Toşkent şahar IIBB JTSB katta psixologi, katta leytenant Botirjon Ötkurov, ikkinçi örinni IIV Surxondaryo akademik litseyi psixologi Xalima Bekmuratova hamda Samarqand viloyati IIB Ma’naviy-ma’rifiy işlar va kadrlar bilan ta’minlaş xizmati boşliğining mukofotlaş masalalari böyiça yordamçisi, mayor Farrux Usmonov qölga kiritdilar.

Navoiy viloyati IIB boş psixologi, mayor Mavluda Orziyeva esa tanlovda eng yuqori natijani qayd etib, birinçi örinni egalladi hamda “Eng yaxşi psixolog–2026” tanlovining ğolibi deb topildi. Ğoliblarga diplomlar hamda esdalik sovğalari tantanali ravişda topşirildi. Şuningdek, tanlovning boşqa iştirokçilari ham kasbiy faoliyatdagi taşabbuskorligi, ijodkorligi, ilğor tajribalari va amaliy mahorati uçun turli nominatsiyalar böyiça taqdirlandi.

* * *

Bayram tadbirlari doirasida ötkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ham soha mutaxassislari uçun özaro fikr almaşiş, ilmiy yangiliklar va amaliy tajribalar bilan örtoqlaşiş imkonini berdi.

Unda Içki işlar vazirligi bilan bir qatorda Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati Çegara qöşinlari hamda oliy ta’lim muassasalarining mutaxassis-psixologlari iştirok etdi.

Konferensiydagi ma’ruzalarda ilgari surilgan ilmiy qaraşlar va amaliy tavsiyalar psixologik ta’minlaş faoliyatini yanada rivojlantiriş, mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oşiriş hamda xodimlarning ruhiy salomatligini muhofaza qilişda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ötkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda “Eng yaxşi psixolog–2026” tanlovi ğoliblarini taqdirlaş marosimi soha mutaxassislarining kasbiy yutuqlarini e’tirof etiş, ilmiy va amaliy hamkorlikni mustahkamlaş, psixologik xizmatning jamiyat va xizmat faoliyatidagi ahamiyatini yana bir bor namoyon etişga xizmat qildi.




**Farhod AHMEDOV,**
**IIV MMI va KTD bölim boşliği, podpolkovnik.**

Qöriqlaş xizmati

# NEFT ÖĞRILIGINING OLDI OLINDI

**«Şörtan neft va gaz qazib çiqariş» korxonasi xavfsizligini ta’minlaş va qöriqlaş vazifasi yuklatilgan Qaşqadaryo viloyati IIB huzuridagi Qöriqlaş boşqarmasi 1-alohida batalyoni xodimlari korxonaga konlardan quvurlar orqali kelayotgan neft mahsulotlari talon-toroj qilinişining oldini olişda fidoyilik bilan xizmat qilmoqda.**

Batalyon xodimlari yaqinda ötkazilgan tezkor-profilaktik tadbir doirasida neft mahsuloti talon-torojligini aniqlaşdi. Kiçik serjant O.Bobonazarov va serjant N.Oçilov idoraviy harbiylaştirilgan qöriqlaş bölinmasi xodimlari bilan birga xizmat olib boriş çoğida, tungi soat taxminan 00:40 larda 1- va 2-postlar hududida “Isuzu” rusumli yuk avtotransport vositasining şubhali harakatiga guvoh bölişdi. Avtomaşina töxtatilib, yukxonasi közdan keçirilganida, u yerda neft mahsuloti bilan töldirilgan 200 litr hajmdagi 4 ta plastik idiş borligi ma’lum böldi. Dastlabki suriştiruvlarda haydovçi B.R. şerigi N.T. bilan neft mahsulotlarini olib ketayotgani aniqlandi.

Holat yuzasidan huquqbuzarlarga nisbatan tegişli çora körildi.

Bugungi kunda strategik ahamiyatga ega obyektlar xavfsizligini ta’minlaşda zamonaviy texnik vositalarning örni tobora ortib bormoqda. Xodimlar aloqa qurilmalari, signalizatsiya va boşqa texnik imkoniyatlar bilan ta’minlanayotgani qöriqlaş xizmati samaradorligini oşirmoqda. Şu bilan birga, batalyon şaxsiy tarkibining kasbiy bilim va könikmalarini mustahkamlaşga alohida e’tibor qaratilmoqda.

**Sodiq RAHIMOV,**
**öz muxbirimiz.**
*Qaşqadaryo viloyati.*

## Ma’naviy-ma’rifiy tadbir

**Içki işlar vazirligi Madaniyat saroyida «Yoş xodimlarni tarbiyalaşda ustoz-şogird an’anasi» mavzusida Ma’naviyat va ma’rifat darsi ötkazildi.**

# KASBIY KAMOLOT POYDEVORI






Tadbirda iste’fodagi general-mayor Tohir Mullajonov iştirok etib, köp yillik xizmat faoliyati davomida töplagan boy tajribasi, hayotiy saboqlari hamda yoş xodimlarni tarbiyalaş borasidagi fikr-mulohazalari bilan örtoqlaşdi.

Ta’kidlanganidek, ustozlik – şunçaki bilim va tajriba ulaşiş emas, balki şogird qalbida kasbga mehr, burçga sadoqat, mas’uliyat va fidoyilik tuyğularini qaror toptirişdek yuksak ma’naviy mas’uliyatdir. Bugungi kunda içki işlar organlari safini zamonaviy bilim va tafakkurga ega, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatli, taşabbuskor hamda fidoyi kadrlar bilan töldirişda ustoz-şogird an’analarini yanada rivojlantiriş alohida ahamiyatga ega.

Zero, tajribali ustozning har bir ögiti, şaxsiy namunasi va xizmatga munosabati yoş xodimning kasbiy hamda ma’naviy kamolotida muhim örin tutadi.

**Javohir BAFOYEV,**
**mutaxassis-muxbir,**
**katta leytenant.**

## Minnatdorlik

# XIZMATLARIDAN MAMNUNMAN

**Men Surxondaryo viloyati, Boysun tumanida yaşovçi, II guruh nogironi iste’fodagi militsiya starşinasi Tursunov Baxtiyorman.**

Uşbu taşakkurnoma orqali öz kasbiga fidoyi, yuksak malakali va mehribon tibbiyot xodimlariga çin dildan minnatdorlik bildirmoqçiman. Xususan, IIVning Namangan viloyatida joylaşgan gospitali boşliği Akram Muhiddinov, boşliq örinbosari Akmal Tojaliyev, şifokorlar Muzaffar Rahmonov hamda Salbarxon Yusupova, boş hamşira Munisa Rahmonova, hamşira Sevaraxon Karimova, şuningdek, bölim ozodaligini ta’minlab kelayotgan fidoyi xodimalar – Umida Dehqonova, Nazira Sattorova va Madina Akbarovalarga rahmat aytaman. Ularning beminnat xizmatlaridan behad mamnunman.

**Baxtiyor TURSUNOV**

*Surxondaryo viloyati.*

## Baxtimiz qomusi

# INSON HUQUQLARINING MUSTAHKAM KAFOLATI

**Boş qomusimizning eng muhim jihatlaridan biri şundaki, unda inson, uning hayoti, erkinligi, şa’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida belgilangan. Bu davlat organlari, jumladan, huquqni muhofaza qiluvçi idoralar faoliyatining boş mezoni inson manfaatlari bölişi lozimligini anglatadi.**




**“Konstitutsiya – inson qadri uluğlangan erkin hayot va yangi kelajak poydevori!”**

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasiga köra, inson huquq va erkinliklari daxlsiz, ulardan sud qarorisiz mahrum etiş yoki ularni çeklaşga heç kim haqli emas. Şuningdek, inson bilan davlat organlari örtasidagi munosabatlarda qonunçilikda yuzaga keladigan barça ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilişi mustahkamlangan.

Köp yillar içki işlar organlarida xizmat qilgan faxriy sifatida aytamanki, uşbu konstitutsiyaviy qoidalar amaliyotda katta ahamiyatga ega. Binobarin, xodimlar har kuni jamoat tartibini saqlaş, jinoyatçilikka qarşi kuraşiş hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilişdek mas’uliyatli vazifani bajaradi. Bu jarayonda qonuniylikka oğişmay amal qiliş, har bir fuqaroga insonparvarlik va hurmat bilan munosabatda böliş muhim talabdir.

27-moddaga muvofiq, har kim erkinlik va şaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Şaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq uşlab turiş mumkin emas, uşlangan paytda esa unga huquqlari va uşlab turiliş sabablari tuşunarli tilda tuşuntirilişi şart.

Şu bilan birga, Boş qomusimizda «Miranda qoidasi»ning asosiy mazmuni ham öz aksini topgan. Jumladan, 28-moddada şaxsning özига va yaqin qarindoşlariga qarşi guvohlik berişga majbur emasligi, 29-moddada esa malakali yuridik yordam oliş huquqi kafolatlangan. Bu normalar tergov va suriştiruv jarayonida qonuniylikni ta’minlaşga, har bir protsessual harakat belgilangan tartibda rasmiylaştirilişiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda içki işlar organlarini «xalqçil tuzilma»ga aylantiriş böyiça izçil islohotlar amalga oşirilmoqda. Bu esa faqat jinoyatçilikka qarşi kuraşiş yoki huquqbuzarliklarning oldini oliş bilan çeklanib qolmasdan, fuqarolarning davlat idoralariga bölgan işonçini mustahkamlaşni ham taqozo etadi. Zero, xalq işonçiga sazovor bölgan içki işlar organlarigina jamiyatda tinçlik va osoyiştalikni ta’minlaşda samarali faoliyat yurita oladi.

Faxriy sifatida yoş avlod va bugungi tizim xodimlariga aytarim şuki, xizmat libosi faqat vakolat emas, balki xalq oldidagi mas’uliyat va burçdir. Qonunni hurmat qilib, adolat, xolislik va insonparvarlikni ustuvor bilgan xodimgina xizmat obrösini yuksaltira oladi.

Xulosa örnida aytganda, Konstitutsiyamiz davlat boşqaruvining huquqiy asosigina emas, balki har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qiluvçi mustahkam kafolati hisoblanadi. Undagi ezgu tamoyillarni hayotga izçil tatbiq etiş esa yurtimizda tinçlik, barqarorlik va taraqqiyotning muhim omilidir.

**Orinbay TURDAQOV,**
**Qoraqalpoğiston Respublikasi Içki işlar vaziri maslahatçisi,**
**iste’fodagi polkovnik.**

## Yuksak mukofot sohiblari

# SADOQAT E’TIROFI

**Inson qadri uning lavozimi yoki unvoni bilan emas, balki öz kasbiga sadoqati xalq manfaati yölidagi fidoyiligi bilan ölçanadi. Buloqboşi tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bölinmasi profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Zokirjon Toştemirovning faoliyati bunga yorqin misoldir. Yaqinda Prezidentimiz farmoniga binoan «Şuhrat» medali bilan taqdirlangani uning köp yillik xizmatiga berilgan munosib baho böldi.**



Lavhamiz qahramoni ayni paytda u 1007 ta oila, 5003 nafar aholi istiqomat qiladigan «Şarq yulduzi» mahalla fuqarolar yiğinida osoyiştalikni ta’minlaşdek mas’uliyatli vazifani bajarmoqda. Hudud 2025-yildan buyon «yaşil» toifada ekani profilaktika işlari samarali yölga qöyilganidan dalolat beradi.

– Zokirjon Toştemirovning sa’y-harakati tufayli mahallamizda tinçlik-osoyiştalik ta’minlangan, – deydi MFY raisi Elyorbek Egamberdiyev. – U yuzaga kelişi mumkin bölgan muammolarga befarq qaramaydi. Şu bois, aholi unga işonadi. Huquqiy masala yoki biror muammo yuzasidan savol tuğilsa, fuqarolarimiz birinçi navbatda Zokirjonga murojaat qilişadi. U esa imkon qadar huquqiy tuşuntiriş berib, amaliy yordam körsatadi.

Podpolkovnik Zokirjon Toştemirovning xizmat faoliyati faqat huquqbuzarliklarning barvaqt oldini oliş bilan çeklanmaydi. U «mahalla yettiligi»ning boşqa a’zolari hamkorligida joriy yilda 116 nafar işsiz fuqaroning bandligini ta’minlaşga erişdi. Zero, doimiy daromad manbayiga ega böliş odamlarning turmuş farovonligini oşiriş barobarida, jamiyatdagi osoyiştalikni mustahkamlaşga ham xizmat qiladi.

Har qanday mukofotning qiymati uning ortidagi maşaqqatli mehnat, katta mas’uliyat va el işonçi bilan ölçanadi. Zero, xalqqa sidqidildan xizmat qiliş, odamlar dardiga quloq tutiş va yurt tinçligini asraş yölida doimo huşyor turiş haqiqiy e’tibor va hurmatning eng işonçli mezonidir.

**Saminjon HUSANZODA,**
**öz muxbirimiz.**

*Andijon viloyati.*

Ma’naviyat va ma’rifat darsi

# XODIMNING MA’NAVIY QIYOFASI: u qanday bölişi kerak?

**Huquq-tartibot tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etiş, mukammal qonunlarni qabul qiliş mumkin. Ammo öşa texnologiyalarni boşqaradigan, qonunni hayotga tatbiq etadigan xodimning qalbida ma’naviy nur, vijdon uyğoqligi va kasbiy or-nomus bölmasa, barça sa’y-harakatlar öz asl mohiyatini yöqotadi. Negaki, fuqaro davlatni, avvalo, köçada turgan patrul xodimi, mahalladagi profilaktika inspektori yoki tergov xonasidagi tergovçi timsolida köradi.**

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev içki işlar organlari xodimlari va faxriylariga yöllagan tabrigida bu haqiqatni aniq va teran ifodalab berdi: «Odamlar bir xodimning muomalasi va xatti-harakatidan butun tizim haqida xulosa çiqaradi». Mana şu birgina jumlada butun tizimning obrö-e’tibori va har bir xodim zimmasidagi ulkan ma’naviy mas’uliyat mujassamlaşgan.

«Içki işlar organlari töğrisida»gi Qonunning 8-moddasida har bir xodimning ma’naviy qiyofasini belgilab beruvçi oltin qoida bitilgan: xodim fuqaroga murojaat etganida öz lavozimi, unvoni, ismi-şarifini aytişi, xizmat guvohnomasini körsatişi, murojaat sababini tuşuntirişi; fuqaro murojaat etganida uni diqqat bilan eşitişi şart. Inson qadr-qimmatini kamsitadigan tarzda muomalada böliş esa qat’iyan taqiqlanadi.

Içki işlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy işlarni taşkil etiş konsepsiyasi tizimdagi tarbiyaviy işlarni «Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qiliş – oliy burçimiz!» degan ğoya atrofida birlaştirdi. Bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan Içki işlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi esa tizim hayotida tom ma’noda buriliş yasadi. Uşbu Kodeksni xodimning «axloqiy konstitutsiyasi» deb ataş mumkin, çunki uning normalari xodimning nafaqat xizmat vaqtidagi, balki xizmatdan taşqaridagi har bir qadamini ma’naviy mezonlar bilan ölçaydi. Xususan, xodim fuqarolar bilan muloqotda xuşmuomala, kamtar va bosiq bölişi, heç kimni kamsitmasligi, xizmatdan taşqari vaqtda dabdababozlik, şuhratparastlik, guruhbozlik, maişatbozlik va içkilikbozlik kabi illatlarga yöl qöymasligi şart. Şuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda axloqqa zid iboralarni işlatmasligi, davlat organlari va islohotlarga nisbatan işonçsizlik uyğotuvçi materiallar joylaştirmasligi lozim.

Eng muhimi, Kodeks talablariga amal qiliş xizmat faoliyati samaradorligini baholaşning asosiy mezoni etib belgilandi. Bu şuni anglatadiki, tezkor tadbirda yuqori natija körsatgan, ammo fuqaroning şa’nini kamsitgan, qöpollik qilgan yoki xizmatdan taşqarida nomunosib xatti-harakat sodir etgan xodim ilğor xodim böla olmaydi. Çunki kasbiy mahorat ma’naviy yetuklik bilan birlaşgandagina haqiqiy professionallik yuzaga keladi.

Ta’kidlaş joizki, Prezidentimiz yöllagan bayram tabrigida ilgari surilgan «Özingni angla va özgani qadrla» hamda «ÖZ» («Özimning Özbekistonim») ğoyalari bugun har bir xodimning hayotiy şioriga va kasbiy burçiga aylanişi şart.

«Özingni angla» – bu, avvalo, kimning vorisi va kimning vakili ekaningni anglaşdir. Bu uç ming yillik davlatçilik tarixiga ega, «Kuç – adolatdadir» degan tamoyilni dunyoga taqdim etgan Sohibqiron Amir Temur avlodi. «Temur tuzuklari»da davlat xizmatçilari va sipohiylarning adolatli, halol, raiyatparvar bölişi davlat barqarorligining boş şarti sifatida körsatilgan. Hududiy içki işlar organlarida taşkil etilgan «Vatanparvarlik burçaklari»da «Temur tuzuklari»dan namunalar joylaştirilgani ham bejiz emas. Bu xodimga tarixiy ildizlarini eslatib turuvçi ma’naviy közgudir.





Ma’naviyati zaif odam qöliga vakolat tegsa, kibrga beriladi, özini fuqarolardan ustun qöya boşlaydi. Ma’naviyati yuksak xodim esa vakolatni imtiyoz emas, balki mas’uliyat deb biladi – vakolati oşgani sari yanada kamtar va vazmin böladi.

Xizmat faoliyatida xodim jamiyatning eng oğriqli nuqtalariga – oilaviy nizolar, öğrilik, firibgarlik, yöl-transport hodisalari, adaşgan yoşlar bilan boğliq vaziyatlarga duç keladi. Bunday muhitda işlaydigan odamda vaqt ötişi bilan kasbiy çarçoq va «emotsional sovuqqonlik» paydo böliş xavfi bor: inson taqdiriga oddiy statistika yoki navbatdagi bayonnoma sifatida qaraş ehtimoli kuçayadi. Bu xavfning yagona davosi – «Özgani qadrla» tamoyilidir. Murojaat bilan kelgan qariyani öz otangday, közi yoşlangan onaxonni öz onangday, adaşgan ösmirni esa öz ukang yoki farzandingday köra olsang, muomalang ham, qaroring ham özgaradi. Hatto huquqbuzarga nisbatan ham jazo muqarrarligini ta’minlaş barobarida, insoniy şa’nini toptamaslik, uni töğri yölga qaytarişga intiliş – haqiqiy ma’naviy yetuklik belgisidir.





Amaliyotda ikki nafar xodim bir xil qonuniy talabni ikki xil tarzda qöyişi mumkin: biri qöpol, jerkib gapirsa, fuqaro qonunni buzgan taqdirda ham özini haqoratlangan his qiladi va bu norozilik uyğotadi; boşqasi özini taniştirib, bosiq va hurmat bilan tuşuntirsa, hatto huquqbuzar ham xatosini tan oladi.

Demak, ijobiy imij sun’iy reklama yoki balandparvoz hisobotlar bilan yaratilmaydi. U uçta asosiy omilga tayanadi: taşqi köriniş va saf madaniyati, nutq madaniyati va tinglaş san’ati, nostandart vaziyatlarda ruhiy barqarorlik. Kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi talablariga muvofiq, xodimning kiyinişi orasta va qat’iy qoidalarga mos bölişi şart; ğijimlangan forma, tozalanmagan poyabzal yoki loqayd qiyofa davlat ramziga hurmatsizlikdir. Fuqaroning gapini bölmay, samimiy tinglaş esa muammoning yarmini yeçadi. Şuningdek, hissiyotga beriliş, jahl ustida qöpol söz aytiş yoki ortiqça kuç işlatiş – xodimning ma’naviy qiyofasiga salbiy ta’sir körsatadi. Agressiv yoki provokatsion vaziyatlarda muşt bilan emas, aql, psixologik bilim va vazmin söz bilan vaziyatni yumşatiş zarur.

Tizimning ertangi kuni yoş kadrlarning qanday tarbiyalanişiga boğliq. Ayniqsa, xodim xizmatga kirgan dastlabki bir yil uning kelgusi kasbiy yölini belgilaydi. Ilk kunlardanoq halol, vijdonli ustozga tuşgan yoş xodim kelgusida har tomonlama yetuk mutaxassis, haqiqiy xalqparvar xodim, el suygan rahbar bölib yetişadi. Loqaydlik va nopok muhit esa eng ezgu niyatlarni ham söndirişi mumkin.

Içki işlar organi xodimining ma’naviy qiyofasi haqida söz yuritganda, köpinça e’tibordan çetda qoladigan, ammo aslida xodimni har kuni xizmatga ilhomlantirib turadigan bir muqaddas qörğon bor. Bu – uning oilasi. Çindan ham, uyida xotirjamlik, mehr-oqibat va özaro tuşuniş hukm surgan xodim xizmatga pok qalb, kötarinki ruh bilan keladi. Uning oilasi – uning ma’naviy qalqoni.

Ma’naviyatning eng yuksak çöqqisi xizmat burçini bajariş çoğida el-yurt tinçligi uçun jonini fido qilgan mard va jasur xodimlarning öçmas xotirasidir. «Vatanparvarlik burçaklari» va muzeylarda saqlanayotgan ularning siymosi bugun safda turgan har bir xodimga mas’uliyat yuklaydi: Vatan tinçligi va xizmat libosi şa’niga aslo doğ tuşirmaslik – vijdon amridir.

Xulosa örnida aytganda, bugungi içki işlar organlari xodimi qonunlarni çuqur biladigan va ularning ruhini qalban his etadigan, inson qadri va odillikni oliy mezon deb biladigan şaxs bölişi kerak. U xizmat vaqtida ham, undan taşqarida ham pok vijdon, halollik, xuşmuomalalik va ruhiy barqarorlik namunasini körsatişi, zamonaviy bilim va axborot texnologiyalarini, kasbiy psixologiyani mukammal egallagan holda fuqarolar bilan samimiy muloqot qila olişi, yoş kadrlarga esa çinakam ustoz va ibrat bölişi lozim. Zero, egnimizdagi xizmat libosi – el-yurtning bizga bildirgan bebaho işonçidir.

**Abdijabbor ABJALOV,**
**IIV Malaka oşiriş instituti professori, siyosiy fanlar böyiça falsafa doktori (PhD), polkovnik.**

Ma’naviyat va ma’rifat darsini videomaterial tarzida köriş uçun QR-koddan foydalaning.

Qoraqalpoq tilidagi matn.

Rus tilidagi matn.

Xavfsiz va soğlom yurt

# AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA

**Poytaxtimizning Çilonzor tumanida jamoat xavfsizligini ta’minlaşda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Xususan, «Çilonzor buyum bozori» hamda «Tashkent Trade Center» savdo majmualarida jamoat tartibini saqlaş, fuqarolar xavfsizligini ta’minlaş borasida zamonaviy kuzatuv tizimlari joriy etilgan.**





Xususan, «Çilonzor buyum bozori» hududiga 401 ta videokuzatuv kamerasi örnatilgan bölib, ularning 40 tasi Toşkent şahar IIBB Yagona tezkor boşqaruv markaziga integratsiya qilingan. Şuningdek, 9 ta taşviş tugmasi örnatilgan.

«Tashkent Trade Center» savdo majmuasida esa 2555 ta kuzatuv kamerasi örnatilgan. Ularning 27 tasi Yagona tezkor boşqaruv markaziga ulangan. Bundan taşqari, majmuada 8 mingta avtotransport vositasiga möljallangan avtoturargohlar faoliyat körsatadi.

Xususan, yuzni tanib oliş tizimi orqali tekşirilgan fuqarolar qamrovi keskin ortdi, bu esa tizimning amaliyotda naqadar samarali işlayotganidan dalolat beradi. Bir oylik qiyosiy tahlilga köra, jinoyatlar soni 38,5 foizga kamaydi, öğrilik jinoyatlari esa 60 foizga qisqardi. Raqamli yeçimlar, kuzatuv tizimlari va xodimlarning aniq yönaltirilgan faoliyati hududda xavfsiz muhitni mustahkamlaşga xizmat qilmoqda.

**Sarvar SOBIROV,**
**öz muxbirimiz.**
*Toşkent şahri.*

# TARĞIBOTDAN AMALIY NATIJAGA

**«Xavfsiz va soğlom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirining uçinçi bosqiçi doirasida Çimboy tumanidagi bozorlar, avtoşohbekatlar va boşqa jamoat joylarida tarğibot işlari amalga oşirilmoqda. Bu jarayonda fuqarolarning huquqiy madaniyatini oşiriş maqsadida maxsus bukletlar tarqatilib, aholiga şaxsiy mol-mulkini asraş, notaniş şaxslarga işonib qolmaslik, şubhali holatlarga befarq bölmaslik va huquqbuzarliklarga duç kelganda tegişli idoralarga murojaat qiliş zarurligi tuşuntirilmoqda.**



Şu bilan birga, kiberjinoyatçilikning turlari, internet firibgarlarining aldov usullari va ulardan himoyalaniş çoralari haqida ham batafsil ma’lumot berilmoqda. Fuqarolarga raqamli xavfsizlikni ta’minlaşda qöl keladigan «APK Qöriqchi» mobil ilovasining imkoniyatlari taniştirilib, undan foydalaniş tavsiya etilmoqda.

– Profilaktik işlar samaradorligi nafaqat tuşuntiriş işlari, balki huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlaş va qonuniy çora köriş bilan ham belgilanadi, – deydi tuman IIB JXX HPB boşliği, mayor Aynazar Nizamatdinov. – Jumladan, hamkorlikda ötkazilgan tezkor-qidiruv tadbirida fuqaro A.K. öz uyida bir guruh şaxslarga qimor va tavakkalçilikka asoslangan öyinni taşkil etib bergani foş etildi. Hodisa joyidan öyinga tikilgan 12 million sömdan ortiq pul mablaği va 6 quti karta aşyoviy dalil sifatida olindi.

Tumanda profilaktik tadbirlar doirasida kuz-qiş mavsumida yonğinlar va is gazidan zaharlaniş bilan boğliq baxtsiz hodisalarning oldini olişga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Xonadonlarda ötkazilayotgan suhbatlarda aholiga isitiş moslamalaridan xavfsiz foydalaniş, gaz jihozlarining texnik holatini muntazam tekşirib boriş böyiça amaliy tavsiyalar berilyapti.

**Azamat PIRNIYAZOV,**
**öz muxbirimiz.**
*Qoraqalpoğiston Respublikasi.*

Ezgu an’ana

# KÖÇAT EKIB, BOĞ YARAT!

**Toşkent şahar IIBB huzuridagi Qöriqlaş xizmati va Sergeli tumani hokimligi hamkorligida kökalamzorlaştiriş tadbiri taşkil etildi. Tadbir doirasida Sergeli tumani «Xontepa» mahalla fuqarolar yiğini hududida 400 tup manzarali va mevali daraxt köçatlari ekildi.**



Mazkur tadbir hududning ekologik holatini yaxşilaş, yaşil maydonlarni kengaytirişga qaratilgan amaliy işlardan biridir. Ötqazilgan daraxt köçatlari kelgusida hududning tabiiy manzarasini boyitib, havoning musaffoligini ta’minlaydi hamda ekologik muhitni yanada yaxşilaydi.

Ta’kidlaş joizki, atrof-muhitni muhofaza qiliş, yaşil hududlarni kengaytiriş va ekologik barqarorlikni ta’minlaşga qaratilgan bunday tadbirlar davlatimiz tomonidan ilgari surilayotgan ekologik taşabbuslarning joylarda amaliy ijrosini ta’minlaşga xizmat qiladi.

**Öz muxbirimiz.**

Profilaktika inspektori boği

# YAŞILLIK SARI XAYRLI QADAM

**Atrof-muhitni obod va ozoda saqlaş – xalqimizning ezgu an’analaridan.**



Ayni kunlarda «Obod mahalla va ekologik barqarorlik sari» şiori ostida mahalliy hokimliklar hamda içki işlar organlari hamkorligida «Mahalla profilaktika inspektori boği» taşkil etiş işlari ham olib borilmoqda.

Yaqinda Kogon şahridagi «Mustaqillik» mahallasida ham şunday boğ barpo etişga kirişildi. Taşabbus doirasida hududga mevali va manzarali köçatlar ötqazilib, mahalla obodonligini oşiriş hamda ekologik muhitni yaxşilaşga qaratilgan işlar amalga oşirildi.

– Ötgan yili ham hududimizda köplab köçatlar ötqazib, atrofni kökalamzorlaştirgan edik. Bu yil uşbu ezgu taşabbusni davom ettiryapmiz. «Profilaktika inspektori boği» taşkil etilayotgani aholi zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklamoqda, – deydi mahalla raisi Oybek Şerbekov.

Uning ta’kidlaşiça, profilaktika inspektori, leytenant Akmal Axmatov qisqa muddatda mahalladagi 943 ta xonadonni örganib, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini oliş, nizoli oilalarni yaraştiriş, aholi bandligini ta’minlaş hamda obodonlaştiriş işlarida faollik körsatmoqda. «Mahalla yettiligi» bilan hamkorlikda olib borilayotgan işlar samarasi ölaroq hudud «yaşil» toifaga kiritilgan.

Şahar hokimligi va Obodonlaştiriş bölimining sa’y-harakatlari bilan mahallada kökalamzorlaştiriş işlari yanada kengaytirilmoqda. Jumladan, profilaktika inspektorining qariyb 10 sotixlik boği, beşta köça hamda xonadonlar oldiga jami 1300 dan ortiq köçat ötqaziş rejalaştirilgan. Hozirgaça bu reja yarmidan oşirib bajarildi.

– «Yaşil makon» umummilliy loyihasi doirasida bölimimiz hududida ham turli mevali va manzarali köçatlar ötqazildi. Şuningdek, «Bir xodim – uç nihol» şiori ostida har bir xodimning xonadonida ham bu işlar amalga oşirilmoqda. Kelgusida imkoniyatdan kelib çiqib, şahrimizda ham «Mahalla profilaktika inspektori boğlari»ni köpaytirişni rejalaştirganmiz, – deydi şahar IIB boşliği, podpolkovnik Niyoziy Boltayev.

**Mirzoqul AHADOV,**
**öz muxbirimiz.**
*Buxoro viloyati.*

«Kibermadaniyatni yuksaltiriş oyligi»

# 3,8 MILLION DOLLARLIK «HADYA» SIRI

**Elektron poçtamga xabar keldi. Xat muallifi özini 76 yoşli Sara Makklari deb taniştirgan. U xorijdagi xususiy şifoxonada saraton kasalligidan davolanayotgani, umrining sönggi kunlarini yaşayotganini yozadi. Marhum turmuş örtoğidan meros qolgan 3 million 800 ming AQŞ dollari miqdoridagi mablağni esa kam ta'minlangan insonlar va yetim bolalarga yordam beriş maqsadida men rahbarlik qilayotgan «Qalb nuri» markaziga hadya qilmoqçi ekan.**




Tasavvur qiling: nogahon elektron poçtangizga şunday taklif keladi. Na taniş-biliş, na avvalgi hamkorlik, na uçraşuv bölgan. Ammo sizga millionlab dollarlik xayriya taklif qilinmoqda! Bir qaraşda insonparvarlikka yöğrilgan ta'sirçan hikoyaga öxşaydi. Ammo xatni diqqat bilan öqigan odam uning ortida qandaydir şubhali maqsad yaşiringanini payqaşi qiyin emas.

Internet firibgarlari özlarining navbatdagi «saxovatpeşa» qurboni sifatida aynan meni tanlaşibdi. Jurnalist, mediatrener, axborot va media savodxonlik böyiça mutaxassis, xotin-qizlarning huquqiy himoyasi bilan şuğullanuvçi NNT rahbariga 3,8 million dollar va'da qilişmoqda. Albatta, bu taklif meni işontirmadi. Aksinça, firibgarlikning yana bir usulini tahlil qiliş uçun qiziqarli suriştiruvga çorladi.

Internet firibgarlari inson psixologiyasini obdan örganişgan. Ular har doim ham qörqitiş, tahdid qiliş yoki soxta yutuqlar bilan aldamaydilar. Ba'zan eng ta'sirçan qurol sifatida insonning mehribonligi, rahm-şafqati va ezgulikka bölgan işonçidan foydalanişadi. Bu xatda ham aynan şu usuldan foydalanilgan. Xat muallifi oğir kasalligi, yolğizligi va umrining oxirlayotganini, marhum turmuş örtoğining vasiyati haqida yozib, bu mablağni yetimlar va kam ta'minlanganlarga qoldiriş istagini bayon etgan. Keyin esa asosiy «taklif» – 3 million 800 ming dollar örtaga taşlangan.

Bu kabi xatlar xalqaro miqyosda «Inheritance Scam» – soxta meros firibgarligi, «Advance Fee Fraud» – oldindan tölov talab qiliş firibgarligi kabi nomlar bilan ma'lum. Ularning ssenariysi deyarli bir xil: maqsad avval işonç qozoniş, keyin katta mablağ haqida xabar beriş, oxirida esa pulni ötkaziş uçun bank komissiyasi, soliq, advokat xizmati yoki hujjatlarni rasmiylaştiriş xarajatlarini tölaşni söraş. Bunday sarob va'daga işongan inson oxir-oqibat öz mablağidan ham ayrilişi mumkin.

Bunday xatlarda e'tibor qaratiş lozim bölgan bir neçta muhim belgi bor:

### I kutilmagan katta mablağ

Siz tanimaydigan insonning heç qanday asos va munosabatsiz millionlab dollar mablağni sizga yoki taşkilotingizga hadya qilişi mantiqan şubhali.

### II hissiy ta'sir

Oğir kasallik, ölim, yolğizlik, farzandsizlik va oxirgi vasiyat kabi mavzular insonning hissiyotiga ta'sir qiliş hamda uning işonçini qozoniş uçun işlatiladi.

### III bank va moliyaviy tösiqlar

«Mablağ maxsus hisobda saqlanmoqda», «xorijga ötkaziş kerak», «bank bilan kelişiş lozim» kabi jumlalar keyinçalik turli bahonalar bilan pul talab qiliş uçun zamin yaratişi mumkin.

### IV şoşiltiriş va alohida aloqa örnatiş

Boşqa elektron poçta manziliga ötiş, tezroq javob berişni söraş yoki ma'lumotlarni sir saqlaşni talab qiliş ham ehtiyot bölişga undaydi.

Bu voqeaning yana bir muhim jihati şundaki, firibgarlar faqat jismoniy şaxslarni emas, balki nodavlat notijorat taşkilotlari, xayriya jamğarmalari va ijtimoiy loyihalarni ham nişonga olişlari mumkin.

Ayniqsa, ayollar, bolalar, nogironligi bölgan şaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar bilan işlaydigan taşkilotlar uçun bunday takliflar alohida xavf tuğdiradi. Çunki xayriya mablağiga bölgan ehtiyoj ba'zan ehtiyotkorlikni susaytirişi mumkin. Katta mablağ evaziga ijtimoiy muammolarni hal qiliş, yangi loyihalarni amalga oşiriş, köproq insonlarga yordam beriş imkoniyati paydo bölgandek tuyuladi. Natijada sodda, işonuvçan kişilarni sarob xayollar oğuşiga tortib ketişi ham mumkin.



**Nodira ALIMOVA,**
**Özbekiston Jurnalistlar uyuşmasi a'zosi,**
**Jizzax viloyati «Qalb nuri» markazi direktori.**

Bugun raqamli makonda axborot oqimi şu qadar tezlaşdiki, inson har kuni yuzlab xabarlar, takliflar, reklama va murojaatlarga duç kelmoqda. Ularning barçasi ham haqiqatga asoslanmagan. Bunday şaroitda mediasavodxonlikning ahamiyati har qaçongidan ham yuqori. Mediasavodxonlik faqat soxta xabarni aniqlaş yoki manbani tekşiriş bilan çegaralanmay, axborotni tanqidiy baholaş, manipulyatsiyani anglaş, şaxsiy ma'lumotlarni himoya qiliş va töğri qaror qabul qiliş madaniyatidir. Şunday ekan, har bir şubhali xabarni olganda özimizga bir neçta savol berişimiz kerak:

- Bu xabarni kim yubordi va uning şaxsi tasdiqlanganmi?
- Nima uçun aynan menga murojaat qilyapti?
- Taklifning mantiqiy va huquqiy asosi bormi?
- Mendan pul, hujjat yoki şaxsiy ma'lumot talab qilinmayaptimi?
- Ma'lumotni mustaqil manbalar orqali tekşiriş mumkinmi?

Agar taklif juda jozibali bölsa-yu, uning işonçli asosi bölmasa, şoşilmaslik kerak.

Men 3,8 million dollarlik «taklif»ga e'tibor bermadim. Çunki har qanday ezgu maqsad ham işonçli manba, qonuniylik va şaffoflikka tayanişi kerak. Bu voqea yana bir bor şuni körsatdiki, axborot asrida faqat bilimli bölişning özi yetarli emas. Har bir xabarga tanqidiy fikr bilan qaraş, uni tekşiriş va xulosa çiqarişni ham biliş zarur.

POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

Kasbidan kamol topganlar

# «HUSAN MAYOR»

**Bu insonni qirq yillardan beri taniyman. El uni suyib, «Husan mayor» deb çaqiradi. Özi ham bunga örganib ketgan, e’tiroz bildirmaydi. U nafaqat tanti, çapani, odamşavanda inson, balki öz işiga puxta xodim sifatida ham odamlar xotirasiga muhrlangan.**

Hozirda yetmiş ikki yoşni qarşilagan Husan Elmurodov ötgan asrning oltmişinçi yillarida maktabga borgan. «Öşa paytlarda tizzagaça qor yoğardi», – deb eslaydi u. Bor-yöği uç yuzga yaqin aholi yaşaydigan ovulda endigina maktab oçilgan edi. Aniqroği, işçilar yotoqxonasi maktabga aylantirilgaç, uning ilk öquvçilari Husan aka va tenqurlari böldi.

Lavhamiz qahramoni vaqti kelib aynan şu maktabda öqituvçi bölib işlaşini tasavvur ham qilmagandi. 1974-yilda u mazkur bilim dargohining ona tili va adabiyot öqituvçisi sifatida iş boşladi. Harbiy xizmatni ötab qaytgan, oliygohda öqiydigan yoş, barvasta bu yigitga barça havas bilan boqardi. Biroq 1980-yilda Husan Elmurodovning hayot yöli keskin özgardi. U Şirin şahar IIBga işga ötdi.

Öşa paytda şahar kiçkina bölsa-da, lekin strategik ahamiyatga ega bölgan. Bu yerda respublikadagi eng yirik elektrstansiyasining qurilişi yakuniy bosqiçda edi. Şaharda ellikdan ortiq millat vakillari istiqomat qilar, stansiya qurilişiga sobiq Ittifoqning barça ölkalaridan işçilar jalb qilingan, bir neça ming kişi yoğoç vagon-uylardan tarkib topgan «muvaqqat şaharça»da istiqomat qilardi. Quriliş bahona boşqa respublikalardagi içkilikka ruju qöygan, turli jinoyatlari uçun jazo ötab çiqqan şaxslar ham kelib qolgan, şu bois şahardagi kriminogen vaziyat murakkab edi.

Husan Elmurodov ayni iş qaynab turgan, jinoyatçilikka qarşi kuraşning avj pallasida safga qöşildi. Yoş leytenantga şaharda tartibsizlik keltirib çiqarişni rejalaştirgan tödani nazoratga oliş vazifasi yuklatildi. Kunduzi Sirdaryo IES Quriliş boşqarmasida işlaydigan uşbu şaxslar keçasi bilan içkilik içib, ayş-u işrat qilib, atrofdagilarga tinçlik bermasdi. Eng qiziği, ular maişat uçun şunça pulni qayerdan olyapti? Leytenant eng avval mana şuni aniqlaşga kirişdi.



Ma’lum bölişiça, uşbu şovvozlar qurilişda nomigagina işlaşgan, vazifalarini bajarmasliklari bilan rahbarlarini bezor qilişgan. Ustomon kimsalar mahalliy haydovçilardan biri bilan til biriktirib, qurilişi uçun keltirilgan toğdek xirmon bölib yotgan yoğoç, armatura, sement kabi mahsulotlarni öğirlab sotiş bilan şuğullanişgan. Quriliş maydonida materiallar köp bölgani uçun dastlab öğirlik qilinayotgani bilinmagan. Yoş leytenant suriştiruvlar, kuzatiş orqali bir haftada bu holatning tagiga yetdi. Jinoiy tödaning qilmişi foş etilib, uning a’zolari öğriliklari uçun jazoga tortilişdi.

Oradan köp ötmay, Husan Elmurodov Sirdaryo viloyati IIB Şaxsiy tarkib bilan işlaş bölimi inspektori etib tayinlandi. U ikki yil davomida yoş xodimlarni saralaş, ularni munosib lavozimlarga joylaştiriş bilan şuğullandi. Keyin esa Boyovut tumani IIBda qariyb yigirma yil xizmat qildi. Ayniqsa, profilaktika inspektori vazifasida işlagan yillari ança murakkab edi. Öşa kezlari çegaralar hali mustahkam emas, kontrabanda avjida edi. Buning natijasida qişloq xöjaligi jiddiy zarar körar, dizel yoqilğisi, mineral öğitlar noqonuniy yöllar bilan olib çiqib ketilardi. Profilaktika inspektorining qat’iyati sababli yuzlab tonna qimmatbaho mahsulotlar uşlab qolindi.

Içki işlar organlarida çorak asrdan köproq faoliyat yuritgaç, 2006-yilda hurmat-ehtirom bilan pensiyaga kuzatildi. Hozir ön uç nafar nabira va ikki çevaraning sevimli bobosi. Qahramonimiz umrining eng gullagan davrida el-yurt xizmatida bölganidan faxrlanadi. Uni hamkasblari, şogirdlari tez-tez yöqlab turişadi, uç avlod uçraşuvlariga çaqirişadi. Demak, hayoti behuda ötmayapti. Mana şuning özi eng katta baxt emasmi?!

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**
**öz muxbirimiz.**
*Sirdaryo viloyati.*

Tadbir

# NIZOLI OILA – JAMIYAT MUAMMOSI

**«Turmuş» keng qamrovli profilaktik tadbiri doirasida viloyatimizda nizoli, ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning holati örganilib, mavjud muammolarni tegişli taşkilotlar bilan hamkorlikda hal etiş çoralari körilmoqda.**



Jumladan, tazyiq va zöravonlikdan jabrlangan 386 nafar ayolga himoya orderlari rasmiylaştirildi. Fuqarolik sudlarida nizolaşayotgan 5 577 ta oilaning 2 800 tasi örganildi. Şuningdek, yaşaş şaroiti örganilgan oilalarda 45 ta muammo aniqlanib, ularning 28 tasi ijobiy hal etildi.

Har bir oiladagi nizoning kelib çiqiş sabablarini çuqur tahlil qiliş va uning yeçimiga kömaklaşiş zarur. Ayniqsa, tazyiq va zöravonlik holatlarida xotin-qizlarning xavfsizligini ta’minlaş, ularga huquqiy va ijtimoiy yordam körsatiş, zarur hollarda tegişli mutaxassislar kömagini taşkil etişga alohida e’tibor qaratamiz.



Oiladagi muammolarni öz vaqtida hal etiş nafaqat er-xotin munosabatlarini yaxşilaş, balki farzandlarning soğlom muhitda ulğayişi uçun ham muhimdir. Şu bois profilaktika tadbirlarida mahalla faollari va mutasaddi taşkilotlar bilan hamkorlikda iş olib borişga ustuvor vazifa sifatida yondaşmoqdamiz.

Zero, oilalardagi muammolarga befarq bölmaslik, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qiliş hamda nizolar oğir oqibatlarga olib kelişiga yöl qöymaslik jamiyatda tinçlik va barqarorlikni mustahkamlaşga xizmat qiladi.

**Gulnoza RAHMATULLAYEVA,**
**kapitan.**
*Namangan viloyati.*

**Yurt kelajagi sen kabi millionlab yoşlarga boğliq ekanini aslo unutma! Ilm-ma'rifat örganişga sidqidildan harakat qil! Çunki bilim va tafakkur bitmas-tuganmas boylikdir.**

*Prezident Şavkat Mirziyoyevning nabirasi Şavkatbekka yöllagan maktubidan*




# HUQUQIMIZNI BILIB OLAMIZ



**Jasurbek:** – Bilasizmi, har bir insonning öz huquqlari bor. Huquqlarimizning eng muhim kafolati – Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir!






**Mardona:** – Konstitutsiyamizda biz, bolajonlarning huquqlarimiz ham belgilab qöyilgan.

**Jasurbek:**

- Biz ta'lim oliş huquqiga egamiz!
- Har bir bola teng huquqli.
- Soğlom ösiş va tibbiy yordam oliş huquqimiz bor.
- Oilada yaşaş va mehr-muhabbatda tarbiyalaniş huquqimiz bor.
- Davlat bizning huquq va manfaatlarimizni himoya qiladi.

**Mardona:** – Bu huquqlar Konstitutsiyamizning 77-, 78-moddalarida mustahkamlangan. Demak, har bir bolaning kelajagi muhim!

**Jasurbek:** – Ammo döstlar, huquqlarimiz bilan birga burçlarimiz ham bor. Ota-onamizni hurmat qilişimiz, yaxşi öqişimiz, ustozlarimizni qadrlaşimiz, Vatanimizni sevişimiz va boşqalarning huquqlarini hurmat qilişimiz kerak.

**Mardona:** – Unutmang, aziz bolajonlar! Öz huquqini bilgan bola özini himoya qila oladi. Boşqalarning huquqini hurmat qilgan bola esa yetuk inson bölib ulğayadi!



PREZIDENTIMIZ MAKTUBINI ÖQIB

# KUMUŞBIBI YURT OTASIGA RAHMAT AYTDI

Prezidentimizning suyukli nabirasi Şavkatbekka yöllagan maktubini sakkiz yoşdan oşgan sevimli nevaram Kumuşbibiga öqib berdim. Yurakdan, samimiy bitilgan sözlarni öqir ekanman, orada jajji qizaloqning közlariga qarayman. Ularda hayrat va katta qiziqişni körib, har qanday samimiy söz töğridan-töğri yurakka yetib borişiga yana bir bor amin bölaman.

***«Qadrli nuridiydam!***

***Bizning bolaligimiz juda maşaqqatli keçgan, suyagimiz qotmasdan kattalar bilan baravar mehnat qilişga majbur bölganmiz.***

***Sening yoşingda yozning jaziramasida ğöza çopib, izğirin sovuqda paxta terganman. Maktabda ön yil öqigan bölsam, şuning deyarli yarmi dalada ötgan. Qiyinçiliklar bizni erta ulğaytirgan».***

Prezidentimizning uşbu sözlaridan söng Kumuşbibi meni qator savollarga kömib taşladi. Unga bolalar 5-sinfdanoq paxta terimiga olib çiqilgani, qor tuşgunça terimga jalb etilgani, köklamga ekinlar niş urib çiqmasidanoq yana dalaga çiqarilganini tuşuntirganimda, xuddi ertak eşitayotgandek tingladi. Ayniqsa, kuzning izğirin sovuği-yu yozning jazirama issiğida keçgan ana şunday azob-uqubatlarni yurt rahbari xalqimizning birorta farzandiga aslo ravo körmasligi haqidagi sözlar uni qattiq ta'sirlantirdi.



– Prezidentimiz bizni yaxşi köradimi? – deya Kumuşbibi munçoqdek közlari bilan menga boqdi.

– Albatta, yaxşi köradi! U kişi sen va Özbekistondagi barça tengdoşlaring heç qanday kamçilik körmay, baxtli hamda farovon hayotda ulğayişingiz uçun barça şart-şaroitlarni yaratişga harakat qilmoqda. Şuning uçun ham tinim bilmay mehnat qiladi, izlanadi, kuraşadi, yangi-yangi hamkorlar topadi, – dedim. Nabiram javobimdan yanada tölqinlanib ketdi.

– Bobo, Prezidentimizga rahmatimni yetkazib qöying! Men yaxşi öqib, zör şifokor bölaman!

Prezidentimizning uşbu maktubi mamlakatimizdagi minglab yoşlarni kelajakka işonç, yuksak maqsadlar sari intiliş va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalaşga xizmat qilişi şubhasiz. Uşbu maktub ösib kelayotgan avlod uçun mamlakatni rivojlantiriş, innovatsiyalar yaratiş, ilm-fan çöqqilarini zabt etiş va şu orqali jonajon yurtimizning şon-şuhratini yanada yuksaltiriş yölida özига xos mayoq bölib xizmat qiladi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**
**öz muxbirimiz.**



# XAZONLAR RAQSIGA TÖLGAN KUZ

Ayni kunlarda ölkamizda kuz fasli hukmron. Daraxtlarning barglari sarğiş, qizğiş va qönğir tusga kirib, yerga birin-ketin tökilmoqda. Şamol esganda esa xazonlar göyo raqsga tuşayotgandek uçib yuradi. Xiyobon va boğlardagi daraxtlar atrofi rang-barang barglarga burkangan. Ayrim bolajonlar ularni terib, guldasta yasaşni yaxşi körişadi. Kimdir esa xazonlar ustida şitir-şitir yurişdan zavq oladi. Ammo bilasizmi, bolajonlar, tökilgan barglar ham dov-daraxtlar uçun foydali. Ular çirib, tuproqqa ozuqa böladi. Şu tariqa tabiat yangi bahorga tayyorgarlik köradi.

Qani, siz ham kuzgi sayrga çiqib, atrofga bir nazar taşlang. Qança rang, qança gözallik! Faqat daraxt şoxlarini sindirmang, tabiatni asrang. Zero, kuzning xazonrezgi davrida ham tabiatning özgaça gözalligi yaşirin!

# KIÇKINTOY KRIMINALISTLAR





Kimdir bolaligida qöğirçoq öynaydi, kimdir maşina haydaydi, yana kimdir özini şifokor, öqituvçi yoki izquvar sifatida tasavvur qiladi. Kattalarga oddiy öyindek köringan bu maşğulotlar aslida bolaning orzu va qiziqişlarini namoyon etadi. Buni yaqinda Içki işlar organlari taşkil topganining 35 yilligi munosabati bilan ötkazilgan tantanali bayram tadbirida guvohi böldik.

Simpoziumlar saroyi oldidagi maxsus maydonçada kiçkintoy kriminalistlar öz faoliyatini namoyiş etişdi. Taxminan 4–7 yoşli bolajonlar haqiqiy mutaxassislardek «voqea joyi»ni örganişardi. Maxsus kiyimlar, lupalar, izlarni aniqlaş vositalari, tekşiruv asboblari va hatto dron ham ular xizmatida edi. Xöş, bu safar ular qanday jinoyatni foş etişmoqda?

Ma'lum bölişiça, bayram dasturxonidagi 35 yozuvli tortdan kimdir ruxsatsiz tatib körgan! Kiçkintoy kriminalistlar esa gumon qilinuvçini aniqlaş bilan band. Taxtaçada «Dadam, kuçukça, muşukça...» degan yozuvlar ham bor. Eng e'tiborlisi, atrofdagilarning qiziqiş bilan kuzatayotganiga qaramay, bolalar öz vazifalarini jiddiy bajarişardi. Uç yulduzli pogon taqqan insonni körişlari bilan safga tizilib, «Hurmatli boşliq!» deya axborot berişga kirişişardi.

Bu qiziqarli sahna ortida katta maqsad bor edi. Xöjaakbar, Soliha, Temur va Amina nafaqat mahoratli bolalar, balki kelajakda kriminalist bölişni orzu qilayotgan yoş iste'dodlardir. Ular «Celebrity Stars» agentligi iştirokçilari bölib, IIV Ekspert-kriminalistika boş markazi bilan hamkorlikda bolalar örtasida uşbu kasbni tarğib qilişga qaratilgan loyihalarda qatnaşişadi. Albatta, bunday taşabbuslar bolalarga turli kasblar bilan yaqindan tanişiş, öz qobiliyatini sinab köriş va kelajakdagi orzularini belgilaşga yordam beradi.









**Dilnora SOIPOVA,**
**«Sevimli» FM radiosi boşlovçisi.**

# MENING QAHRAMONIM – DADAM!

*Har kuni ertalab dadam xizmat kiyimini kiyib, işga otlanadilar. Men esa ularning ortidan qarab:*

*– Dada, bugun ham odamlarni himoya qilgani ketyapsizmi? – deb sörayman.*

*– Ha, bolam. Bizning burçimiz – odamlarning tinçligi va xavfsizligini ta'minlaş, – deydilar.*



*Otam Xorazm viloyati Içki işlar boşqarmasida xizmat qiladilar. Ba'zan işdan çarçab qaytganlarini köraman. Şunda ularning kasbi naqadar mas'uliyatli ekanini his qilaman.*

*Dadam menga doimo qonun-qoidalarga amal qiliş, kattalarni hurmat qiliş, kiçiklarga mehribon böliş kerakligini örgatadilar. Yölni kesib ötişda şoşilmaslik, begonalardan ehtiyot böliş, internetdan töğri foydalaniş haqida ham köp nasihat qiladilar.*

*Bir kuni:*

*– Dada, siz işda nimalar bilan şuğullanasiz? – deb söradim.*

*– Biz odamlarning osoyişta yaşaşi, bolalarning maktabga xotirjam borib-kelişi, köçalarda tartib bölişi uçun xizmat qilamiz. Ba'zan yordamga muhtoj insonlarga kömaklaşamiz, – deb javob berdilar.*

*Şunda men dadamning xizmat kiyimiga boşqaça nigoh bilan qaradim. Bu kiyim şunçaki libos emas, balki katta mas'uliyat, jasorat va sadoqat ramzi ekanini angladim. Men barça içki işlar organlari xodimlarini ham hurmat qilaman. Çunki ular tun-u kun xalqimiz osoyişta ligi, yurtimiz tinçligi va bolalarning beğubor bolaligi uçun xizmat qiladilar.*

*Men katta bölganimda kim bölişimni hali aniq bilmayman. Ammo dadamdek halol, jasur, mehribon va el-yurtga foydasi tegadigan inson bölişni xohlayman. Axir mening eng katta qahramonim – har kuni xizmatga otlanadigan, oilamiz va xalqimiz tinçligi uçun mehnat qiladigan dadamdir!*

*Dada, siz bilan faxrlanaman!*

**Nursulton NURMAMATOV,**
**Yangiariq tumanidagi 36-maktabning**
**4-sinf öquvçisi.**

**MITTI HIKOYA**

## ODOBSIZ MEHMON

Rasm darsida muallim öquvçilarga özingiz istagan suratni çizib keling, deb uyga vazifa berdi. Pölat uyga kelganida mehmonlar kulişib, hangomalaşib ötirişardi. U çoyini içib bölganidan söng, mehmonxonaga kirib, qönoqlarga salom berdi.

Mehmonlardan birovi dasturxon boşida tamaki çekib, tutun burqsitardi. Uyning içini aççiq tutun bosib ketgan.

Pölat rasm daftariga tamaki çekayotgan odamning suratini çizdi. Uning oldida dasturxon, çoynak-piyola, non.

Ertasiga darsda muallim Pölatni örnidan turğizdi.

– Sen qanaqa rasm çizgansan?

– Bu – odobsiz mehmonning surati...

Muallim kulimsirab suratga qaradi-da, "beş" baho qöydi.

**Jumaniyaz OTENIYAZOV,**
**Özbekiston va Qoraqalpoğiston**
**Yozuvçilar uyuşmasi a'zosi,**
**iste'fodagi podpolkovnik.**

## TEST SAVOLLARI




**Holat:** Malika maktabdan qaytayotib, boğdagi örindiqda bir neça daqiqa dam oldi. U uyga yetib kelgaç, ryukzagi yöqligini payqadi. U skameykada ryukzakni qoldirib ketgan bölişi mumkin.

**Savol:**
**Malika bu vaziyatda qanday yöl tutişi kerak?**

A) Ryukzakni özi qidirib, notaniş odamlarning ortidan borişi.

B) Ota-onasiga yoki işonçli katta odamga xabar berişi, zarur bölsa IIO xodimidan yordam söraşi.

C) Atrofdagi birinçi uçragan odamni ayblaşi.

*Tŏğri javob: B*
*Bola xavfsiz joyda qolişi, ota-onasi yoki işonçli katta odamga darhol xabar berişi kerak. Agar yordam zarur bölsa, yaqin atrofdagi IIO xodimiga murojaat qilişi mumkin.*




**Holat:** Aziz ijtimoiy tarmoqda özini tengdoşi deb taniştirgan notaniş foydalanuvçidan xabar oldi. U Azizdan uy manzili, telefon raqami va qaysi maktabda öqişini söradi. Aziz bu odamni tanimaydi.

**Savol:**
**Aziz qanday yöl tutişi kerak?**

A) Söralgan ma'lumotlarni yuborib, suhbatni davom ettirişi.

B) Şaxsiy ma'lumotlarni bermasligi, suhbatni töxtatişi va ota-onasiga aytişi.

C) Notaniş odamga özining barça suratlarini yuborişi.

*Tŏğri javob: B*
*Uy manzili, telefon raqami, maktab nomi, parol va tasdiqlaş kodlari şaxsiy ma'lumot hisoblanadi. Notaniş odam bunday ma'lumotlarni sörasa, bola işonçli katta odamga xabar berişi kerak.*

# Topişmoqlar

Mening özim paxmoqman,
Oyoqlari maymoqman.
Asalni xuş köraman,
Qiş böyi tuş köraman.
(Ayiq)

Titraydi bir ökirsa,
Örmonning hammayoği.
Tiş, tirnoği ötkir-da,
Udir hayvonlar şohi.
(Şer)

Naqd koptok – dumalasa,
Ajoyib hayvon ekan.
Çetlaşing gar yölasa,
Sançilar mingta tikan.
(Tipratikan)



Kiçkinaman, bilsangiz,
Özimdan katta dumim.
Yonğoqlar jon-u dilim,
Daraxtlarda manzilim.
(Olmaxon)

Juda foydali özim,
Poliz erur manzilim.
Pöstloğimni arçsangiz,
Yiğlaysiz deb: «Voy, közim!»
(Piyoz)

Sirtdan toşdayman biroq,
Içim töla mağiz, yoğ.
Mazali va foydali,
Mevaman, nomim .....
(Yonğoq)

Har bir varağim hikmat,
Olasan öqib ibrat.
Bilim beray behisob,
Men asl dösting – .....
(Kitob)

**Şohida BAHRONOVA,**
**Qorovulbozor tumani.**

# Kitobxon ota ibrati

**Oltiariq tumani IIB boşliği örinbosari, mayor Mirolim Tojiboyevning kitobga mehri bölakça. Uning fikriça, kitob insonning bilim va dunyoqaraşini boyitadi.**



– Ma'naviyatning eng mustahkam ustuni – kitob. Şuning uçun farzandlarimga ham, xodimlarga ham köproq kitob öqişni tavsiya etman. Tuğilgan kun va bayramlarda ham ularga kitob sovğa qilişni kanda qilmayman, – deydi mayor Mirolim Tojiboyev.

Otaning kitobga bölgan mehri farzandlariga ham yuqqan. Uning uç nafar farzandi bilim olişga va mutolaaga qiziqadi. Ayniqsa, öğli Nurbilol A'zamjonovning yutuği quvonarli. U Oltiariq tumanidagi 19-maktabning 7-sinfida öqiydi. Yaqinda ingliz tilidan xalqaro B2 sertifikatini qölga kiritdi. Nurbilolning onasi Xumora Tojiboyeva ingliz tili öqituvçisi bölib, öğlining bilim olişiga yaqindan yordam beradi.

– Dadam doim köp kitob öqiş va çet tillarini örganiş kerakligini aytadilar. Kelajakda xorijda tahsil olib, yurtimizga malakali mutaxassis bölib qaytişni istayman, – deydi Nurbilol.

Oilaning katta farzandi Xuşnudabonu A'zamjonova 11-sinfda tahsil oladi, yaqinda kimyo fanidan milliy sertifikatni qölga kiritdi. Kelajakda şifokor bölişni niyat qilgan. Kenja farzand Xuşnozabonu esa boğça tarbiyalanuvçisi. U allaqaçon şoirlar – Anvar Obidjon va Quddus Muhammadiyning şe'rlarini yod olib, ifodali aytib beradi. Demak, kitobsevar ota-ona farzandlariga ham ilmga muhabbatni örgatmoqda. Zero, kitob öqigan bolaning bilimi ortadi, orzulari esa yanada yuksaladi!

**Abduvosit SIDIQOV,**
**öz muxbirimiz.**
*Farğona viloyati.*

**BU — QIZIQ!**

## ŞOKOLADDAGI QIZÇA KIM?



Köpçilik bolajonlar şirinlikni juda ham yaxşi körişadi. Ayniqsa, öramida boşiga römol boğlagan şiringina qizça tasvirlangan «Alyonka» şokoladini, albatta, yeb körgan bölsangiz kerak. Ammo uning suratidagi qizaloq kimligini bilasizmi?

Ötgan asrning 60-yillari boşlarida suratçi Aleksandr Gerinas sakkiz oylik qizi Yelenaning fotosuratlaridan birini qandolat fabrikasi e'lon qilgan tanlovga yuborgan. Qizçaning çehrasi fabrika vakillariga juda yoqib qolgan. Şu tariqa kiçkintoy Yelenaning surati maşhur «Alyonka» şokoladining ramziga aylangan! Qiziq-a, ba'zan oddiy bir surat ham tarixga muhrlanişi mumkin ekan!

**Gulnoza TURĞUNBOYEVA**

# FAQAT BIR MARTA...

Javohir oltinçi sinfda öqiydi. U maktabdagi eng yaxşi şaxmatçi. Kunlarning birida Javohir döstining tuğ'ilgan kuniga borganida, yuqori sinfda öqiydigan Farhod bolalarga kichkina yaltiroq qutida sigareta uzatdi.

– Şaftoli hidlisi, – dedi u közini qisib. – Bir tortib köringlar, faqat bir marta! Hech kim bilmaydi. Yoki sen qörqasanmi? – dedi kulib Farhod Javohirga qarab.

Javohir odatda öylab iş qiladigan zehnli bola edi. Ammo bu safar "Nima böpti, bir marta -ku", – dedi-yu, sigaretadan bir tortdi. Şu zahoti qattiq yötaldi, közlari yoşlanib, boşi aylanib ketdi.

Oradan bir oy ötdi, Javohirning sigaretaga qiziqişi ortib borardi. U şaxmat tögaragiga kamroq boradigan odat çiqardi. Şaxmat taxtasi oldida ötirganida ham xayoli sigaretada bölardi. Tuman musobaqasida özidan ancha kuçşiz raqibga yutqazdi.

Endi Javohirni yangi döstlari oqşom payt kompyuter öyinlariga çaqiradigan bölişdi. Bir kuni Farhod hammaga içimlik quyib uzatdi:

– Bir qultumdan tatib köringlar, faqat bir qultum! Hech kim sezmaydi. Javohir, sen endi kattasan-ku... Bir qultum hech narsa qilmaydi...

Ertasi kuni darsda orqa partaga ötirib olgan Javohirning boşi zirqirab oğrirdi.

– Boşingni kötar, – dedi sinfdoşi Madina uning yoniga ötirib. – Senga nima böldi?

– Eeeyyy… keça… bir marta, ozgina içib körgandim…



Viloyat şaxmat musobaqasi oldidan Farhod Javohirni maktab hovlisida töxtatdi. Uning kaftida konfetga öxşaş rangli tabletkalar bor edi.

– Buni yutsang, miyang kompyuterdek işlaydi, – dedi u. – Faqat bir marta sinab kör, şaxmatda hammani yengasan. Ol! Bir marta sinab kör, musobaqa oson ötadi, – degan ovoz Javohirning quloqlari ostida yangrardi. Uning qöli tabletka tomon çözildi...

Madina öquvçilarni kutib turgan avtobusga çiqdi va Javohirning yoniga ötirdi. Qarasa, uning qölida qandaydir dori bor.

– Mazang yöqmi? – dedi u.

– Yöq, buni Farhod berdi, miyani yaxşi işlatadigan dori ekan...

– Özing bilmaydigan dorini içiş mumkin emas-ku! Öylab iş qil!

Javohir töxtadi. U köz oldiga keltirdi: bitta tortib körish, keyin har kuni xohlaş, bir marta içib köriş, keyin har kuni istaş. Endi esa tabletka...

– Qani öşa dorini menga körsat-çi? – deya Madina Javohirning kaftini ochdi. Kaftidagi tabletka eriy boşlagandi.

Madina çaqqonlik bilan tabletkani oldi va avtobus oynasidan uloqtirib: – Dorini faqat doktor beradi, – dedi.

Musobaqa yana Javohirga omadsiz keldi. Uyga qaytişda Madina Javohirga qarab:

– Senga yordam kerak, – dedi...

Ertasi kuni dadasi Javohirni şifokorga olib bordi.

...Yaqinda Javohir viloyat musobaqasida ikkinçi örinni egalladi. Taqdirlaşdan keyin u özida özi söz berdi: heç qaçon bir marta degan sözga işonmayman, uning tuzoğiga endi ilinmayman!

**Nasiba ERXONOVA**

# «YÖLDA TARTIB BÖLIŞINI ISTAYMAN»

Navoiy şahri köçalarida ba'zan qölida YPX inspektorining tayoqçasini uşlagan, jiddiy qiyofada maşinalarga işora qilayotgan bolakayga közingiz tuşadi. Uning «buyruq»lariga haydovçilar ham befarq bölmaydi: kimdir jilmayib qöyadi, kimdir maşinasini sekinlatib, jajji inspektorga hurmat körsatadi.

Bu bolakay törtinçi sinf öquvçisi Farruh Hasanov. Navoiy şahrida uni tanimaydiganlar kam. Ijtimoiy tarmoqlardagi videolar orqali u köpçilikning e'tiborini qozongan. Hamma uni «mitti YPX inspektori» deb atay-di. Lavhamiz qahramonini suhbatga tortdik:

**– Farruh, nega aynan YPX xodimi bölişni xohlaysan?**



– Çunki maşinalarni yaxşi köraman. Yölda tartib bölişini istayman.

**– Agar haqiqiy YPX xodimi bölsang, haydovçilardan nimani talab qilarding?**

– Tezlikni oşirmasliklarini, svetoforga qaraşlarini, piyodalarga yöl berişlarini sörardim. Yölda ehtiyot böliş kerak.

Albatta, hozirça uning uçun bu harakatlar bolalarça qiziqiş va öyinning bir qismi. Biroq şu qiziqiş ortida tartib-intizomga bölgan havas, yöl harakati qoidalariga e'tibor va kattalarga taqlid qiliş istagi mujassam. Farruhning bugungi qiziqişi ertangi kasb tanloviga aylanişi ham mumkin.

**Mahliyo XOLOVA,**
**öz muxbirimiz.**
*Navoiy viloyati.*

## Tong bilan suhbat

– Tong nimadir?
– U onam.
– Şabnamlar-çi?
– Köz yoşi.
– Toğlar uluğvor neçun?
– Kökka tutar quyoşni.
– Soylar qiqirlar nega?
– Yölga tuşar ravona.
– Gullar-çi?
– Husn, böy ulab,
– Zamingadir parvona.
– Şamol bunça tegajoq?
– Soğingan-da kunduzni.
– Çirildoq çirillamas?
– Yöqotgandir yulduzni.
– Nimadir şovullaydi,
Soçib yaşil olovni?
– Teraklar qöşiq boşlar,
Tutib ulkan yalovni.
Şu'lalari şivirlar,
Xursand quyoş – roviydek.
– Tongni suyar odamlar,
Ulaşgan-çun moviylik.

## Quyoş tabassumi

Quyoş tabassumidan
Qir-adir yaşnab ketdi.
Subhidam oq yaktagin
Toğlarga taşlab ketdi.
Kamalak köylagini
Dalalar kiyib oldi.
Eh, jonlaniş borliqqa
Hayratdan ötov soldi!
Jildirar şöx-şod jilğa,
Boqqa burib yölini.
Daraxtlar duo qilar
Kökka çözib qölini.
Poda örlar yaylovda,
Çöpon ukam Bekqul şod.
Hay-huylar çavandozday,
Minib olib çöbir ot.
Angişvona barmoqda,
Yuzi yorişib birdan,
Momom yayrab tön biçar
Quyoş tabassumidan.

**Öroz HAYDAR,**
**Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi a'zosi, iste'fodagi mayor.**






Aziz bolajonlar! Içki işlar organlari taşkil topganining 35 yilligi munosabati bilan sizlar uçun maxsus **«Jasur inspektor yoxud qahramonlar oramizda»** multseriali tayyorlandi. Uşbu qiziqarli loyiha, avvalo, sizning huquqiy ongingizni oşiriş, kundalik hayotda qonun-qoidalarga rioya qiliş, huşyorlik va mardlikni örgatişga qaratilgan. Multserialning yangi qismlarini Içki işlar vazirligining rasmiy kanallarida tomoşa qiling va jasur qahramonlardan örnak oling!



Актуально

# МИРАБАДСКИЙ РАЙОН: МИГРАЦИЯ, ДОКУМЕНТЫ, ЛЮДИ

**Сотрудники отдела миграции и персонализации УКД ОВД Мирабадского района ежедневно работают с обращениями граждан, помогая им решать вопросы, связанные с документированием, регистрацией и соблюдением миграционного законодательства. За десять месяцев 2026 года по основным направлениям деятельности подразделения достигнуты следующие результаты.**



Одним из наиболее востребованных направлений остается оформление ID-карт. За отчетный период сотрудниками отдела принято и выдано 8532 ID-карты.

Особое внимание уделяется гражданам, которые по состоянию здоровья не могут самостоятельно посетить подразделение. Так, 26 жителям с инвалидностью документы оформили непосредственно на дому.

Не менее активно ведется работа по оформлению биометрических паспортов для выезда за границу. С начала года принято 7212 заявлений.

Чтобы гражданам не приходилось лишний раз обращаться в подразделение, сотрудники информируют их о готовности паспортов посредством телефонных звонков и SMS-уведомлений.

Сотрудники отдела также обеспечивают регистрацию граждан по месту жительства и месту пребывания. За десять месяцев по месту жительства зарегистрировано 6365 человек, по месту пребывания – 12 752.

Значительный объем работы приходится и на оформление документов иностранным гражданам, лицам без гражданства и гражданам государств СНГ, постоянно проживающим на территории района. Их число составляет 2141 человек, в том числе 83 лица без гражданства и 2058 иностранных граждан и граждан государств СНГ.

Еще одно важное направление – регистрация иностранных граждан и граждан государств СНГ, временно пребывающих на территории района.

С начала года на временный учет поставлено 19 634 человека, из них 11 128 – иностранные граждане и 8506 – граждане государств СНГ.

Результаты показывают, насколько многогранна деятельность отдела миграции и персонализации.

За повседневной работой с документами стоит важная задача – обеспечение законности, упорядочение миграционных процессов и создание удобных условий для граждан.



**Юлия МУСТАФАЕВА,**
**соб. корр.**
**Фото Икрома ХАСАНОВА.**

Экологическая безопасность



# ЕДКИЙ ДЫМ…

Когда сжигают опавшую листву, сучья или траву, в воздух летят вредные вещества – угарный газ, оксиды азота, мелкодисперсные частицы. Ситуация усугубляется, если с листвой “соседствует” бытовой мусор…

– Это не просто неприятный запах. Такой дым бьет по качеству воздуха и здоровью людей, – отмечает начальник отдела начальник отдела Государственной инспекции экологического контроля Достон Хожанов. – Вместо сжигания растительные остатки следует собирать и вывозить в установленном порядке либо использовать в качестве натурального удобрения для почвы.

Загрязнение атмосферного воздуха путем сжигания стерни, опавшей листвы, веток деревьев, растительных остатков запрещено законодательством. В соответствии с ч. 3 ст. 88 КоАО за правонарушение предусмотрен штраф для граждан в размере от 1 млн 320 тыс. до 2 млн 200 тыс. сумов, а для должностных лиц – от 8 млн 800 тыс. до 13 млн 200 тыс. сумов. При повторном совершении правонарушения в течение года сумма штрафа заметно увеличивается.

Экологи вместе с представителями правоохранительных органов, махаллей проводят усиленные рейдовые мероприятия. На сегодняшний день выявлено более 4 100 фактов сжигания опавшей листвы, веток и растительных остатков. Кроме того, совместно с агентством “Узбеккосмос” путем дистанционного зондирования зафиксировано 915 случаев выжигания пожнивных остатков на полях. По каждому факту приняты меры.

Чистый воздух и здоровье связаны напрямую.

**Радик ТУМПАРОВ,**
**соб. корр.**

Стражи здоровья

# ДОКТОР С ДОБРЫМ СЛОВОМ

**В поликлинике Медицинского отдела ОВД Бухарской области большинство составляют преданные профессии, чуткие и приветливые к пациентам врачи, в совершенстве овладевшие своим делом. Врач общей практики Дилноза Муродуллаева – одна из них. Коллеги называют ее врачом с легкой рукой и чистым сердцем. Доброжелательность и постоянный поиск знаний принесли ей заслуженный авторитет и уважение.**

Приходящие к ней пациенты неизменно повторяют одно и то же: “Еще до того, как Дилнозахон поставит точный диагноз, ее открытое лицо и доброе слово придают нам сил, и это важный фактор для нашего скорейшего выздоровления”. И действительно, Д. Муродуллаева – квалифицированный специалист своего дела и достойная ученица своих наставников.

– Пару дней назад у меня появился горьковатый привкус во рту. Сначала я не придал этому значения, но чуть позже понял, что без обращения к врачу не обойтись. Когда я пришел, меня всесторонне обследовали и назначили необходимое лечение. Вот теперь мне уже намного лучше, – рассказывает пациент, выходя из кабинета врача в радостном настроении.



Врач не должен останавливаться в работе над собой и обязан регулярно следить за новостями медицины, считает героиня нашего очерка. Кроме того, она не забыла подчеркнуть, что для сохранения здоровья человеку необходимо правильно питаться, придерживаться здорового образа жизни и вовремя отдыхать.

**Мирзокул АХАДОВ,**
**соб. корр.**
*Бухарская область.*

Safe tourism

# MODERN SECURITY IN MOUNTAINOUS AREAS

Located in the Kumushkon neighborhood of Parkent district (Tashkent region), the “Oltin Bel” tourist complex is a major recreational hub capable of hosting up to 6,000 visitors simultaneously. To ensure tourist safety in the mountainous terrain, the Security Department under the Parkent District Internal Affairs operates a 24/7 guard and patrol service. Rapid response teams are equipped with a specialized “Isuzu” off-road vehicle designed for rugged mountain roads, outfitted with high-power lighting, first-aid kits, and essential rescue gear.



Modern approach

# DIGITAL MONITORING – THE KEY TO SECURITY

Modern information technologies are being widely used to ensure public safety in the Chilonzor district of the capital. In particular, systematic efforts are underway to maintain public order and ensure the safety of citizens at the Chilonzor goods market and the Tashkent Trade Centre shopping complex.

A total of 401 video surveillance cameras have been installed across the Chilonzor goods market, 40 of which are integrated into the Unified operational control centre of the Tashkent city main DIA. In addition, nine emergency alert buttons have been installed.

The Tashkent Trade Centre shopping complex is equipped with 2,555 surveillance cameras, 27 of which are connected to the Unified




operational control centre. The complex also operates parking facilities with a capacity of 8,000 vehicles.

In particular, the number of individuals screened through the facial recognition system has increased significantly, demonstrating the system's effectiveness in practice. According to a comparative analysis covering one month, the number of crimes decreased by 38.5 per cent, while theft offences fell by 60 per cent.

Digital solutions, surveillance systems and the targeted efforts of personnel are helping to strengthen the safe environment throughout the area.

Future Talents

# LITTLE CRIMINAL INVESTIGATORS WITH BIG DREAMS

During the 35th anniversary of the Internal Affairs bodies, young “investigators” aged 4–7 demonstrated their skills in front of the Palace of Symposia. Equipped with uniforms, magnifying glasses, and drones, the children investigated a simulated “crime” – finding who secretly tasted the anniversary cake among suspects like “Dad, puppy, or kitten”. Organized by the “Celebrity Stars" agency and the MIA Main Forensic Examination Centre, the initiative helps inspire children's future career aspirations.




Professional dedication

# THE BEST JUNIOR OFFICER

As a child, Mohinur attended her uncle’s oath-taking ceremony at the Academy of the Ministry of Internal Affairs. The Academy’s parade ground and the young cadets in uniform made a lasting impression on her and inspired her to pursue a career in law enforcement. That dream eventually came true: she enrolled in the Academy of the Ministry of Internal Affairs and studied in the “Crime prevention” faculty.



Mohinur began her career as an inspector-psychologist specialising in juvenile affairs, working with young people and adolescents until 2024.

Currently, Captain Mohinur Murodova serves as an inspector for special assignments in the Foreign citizens affairs group of the Migration and personnel department of the Jizzakh regional DIA. She handles matters related to foreign nationals’ documents, legal status, stay and movement within Uzbekistan, approaching her duties with professionalism, responsibility and courtesy.

Mohinur has also achieved remarkable results in sports. She is a four-time Uzbekistan swimming champion and a medalist at the national athletics championships. She won the 5-kilometre race at the Tashkent International Marathon and took second place in the “I am the winner” competition in 2022. She is currently a member of the Ministry of Internal Affairs’ “Tomyris” national team.

Her dedicated service has been recognised with several awards, including a wristwatch from the Ministry of Internal Affairs, the “Outstanding youth” badge of honour and certificates of merit from the regional DIA.

Recently, she won first place in the “Profession olympiad” competition and was named “Best junior officer.”

Reading is another of her favourite pastimes. Mohinur aims to read at least one book every month. She is currently reading Jojo Moyes’ novel “Me before you”.

**Translated by Munavvar RASHİDOVA, docent.**

A noble step toward greenery

# NEIGHBORHOOD PREVENTION INSPECTOR'S GARDEN



In the Mustaqillik neighborhood of Kogon city, local authorities and internal affairs bodies are establishing a “Neighborhood prevention inspector's garden”. Thanks to effective crime prevention and community work by the “Neighborhood Seven”, the area has achieved “green” (safe) category status. As part of the initiative, over 1,300 saplings are being planted across a 10 acres garden, five streets, and residential yards (with over half already completed), alongside internal affairs officers planting trees at home under the “One employee – three saplings” campaign.



# XON SAROYIDAN BOŞLANGAN AN'ANA

***Bu sulolaning ajdodi bir vaqtlar Xiva xoni saroyini qöriqlagan. Oradan asrlar ötdi, xonlik tarixga aylandi, zamonlar-u tuzumlar özgardi. Eşçonovlar sulolasining jami 21 nafar vakili içki işlar organlari safida xizmatga bel boğlagan va şulardan olti nafari bugun ham faoliyatini davom ettirmoqda.***

## «SÖVĞA» LAQABINING TARIXI

Eşçonovlar xonadonida avloddan-avlodga ötib kelayotgan bir hikoya bor, ildizi Xiva xonligi davriga borib taqaladi. Aytişlariça, sulola ajdodlaridan Eşçonboy xon saroyidagi qöriqçilarga boşçilik qilgan. U nihoyatda alpkelbat, böyi baland, salobatli kişi bölgan.

Eşçonboy eski maktabni tamomlab, «yorliq» ham olgan. Sulola xotirasida bu voqea Muhammad Rahimxon I nomi bilan boğlanadi. Aytişlariça, xon uning böy-basti va salobatini alohida ta'kidlab, «Sövğa» laqabini bergan. Xonadon kattalari bu sözning ma'nosini «tuproği yaxşi, nasli toza, asli mustahkam» deya izohlaydilar.

Sulola tarixida Muhammad Rahimxon II (ya'ni şoir Feruz) davri ham alohida tilga olinadi. Oilaviy xotiralarga köra, Eşçonboy Sobirov unda «Xonning bahodiri», ya'ni general darajasidagi yuksak harbiy maqomga sazovor körilgan va qöriqlaş xizmatiga rahbarlik qilgan. Uning qölida qiliç bölsa, keyingi avlodning yelkasida pogon bölgan.

## SOBIR EŞÇONOV – FIDOYI INSON

Eşçonboy Sobirovning kasbini nevarasi Sobir Eşçonov davom ettirib, içki işlar idoralarida 33 yildan oşiq samarali xizmat qilgan. 1926-yili tuğilgan S. Eşçonov 1945-yilda armiyaga ketib, beş yillik xizmatdan söng katta serjant harbiy unvoni bilan qaytgan. Öşa 1950-yiliyoq Xorazm viloyatidagi 6-son Tergov hibsxonasida faoliyat boşlagan. Keyin Toşkentdagi örta maxsus militsiya maktabini tamomlagaç, Urganç şahar IIBda uçastka inspektori etib tayinlangan. Samarali xizmati natijasida lavozimi ham, unvoni ham yuksalib borgan. Militsiya leytenanti S. Eşçonov özига biriktirilgan hududda jinoyatçilikning oldini olişda faollik körsatgan, aholi bilan hamjihatlikda işlagan.

Keyinçalik jinoyat qidiruv yönalişida, rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan, xavfli jinoyatçilar bilan köp bora yuzma-yuz kelgan. Bir gal



Sobir Eşçonov

Rustam ismli yigit qaynona va qaynotasini otib öldirgani haqida xabar tuşadi. Tezkor guruh voqea joyiga yetib borganida qurollangan jinoyatçi içkarida bölib, yaqinlaşganlarni otib taşlaş bilan tahdid qilardi. Sobir Eşçonov vaziyatni kuzatib, uyning orqa tomonidagi eski deraza orqali içkariga kiradi. Jinoyatçi bilan olişuv paytida qurollangan şaxs zararsizlantiriladi.

Urganç şahar Qöriqlaş bölinmasi boşliği lavozimidan nafaqaga çiqqan mayor Sobir Eşçonovning xizmatlari davlat tomonidan ham e'tirof etilib, «Şuhrat» medali bilan taqdirlangan. U xizmatda talabçan, hayotda esa bağrikeng va mehribon inson bölgan. Turmuş örtoği Saodat aya bilan birga farzandlarini xalqparvarlik hamda fidoyilik ruhida tarbiyalagan.

## OTAGA MUNOSIB ÖĞIL

Sobir Eşçonovning şu muhitda ulğaygan Zarifboy ismli öğli 1976-yili maktabni tamomlab, Urganç avtomobil yöllari texnikumida tahsil olgan va içki işlar organlari aloqa bölimida texnik xodim sifatida xizmat boşlagan.

1982-yildan Urganç şahar IIB Davlat avtomobil inspeksiyasida yöl-patrul inspektori bölib faoliyatini davom ettirgan. 1996-yili şu yerda katta inspektor, 2001-yili esa Yangiariq tumani IIB YHXX katta inspektori etib tayinlangan va mayor unvonini olgan.

Zarifboy akaning faoliyatidagi sanalarni birma-bir sanaş mumkin. Ammo xodimning qanday xizmat qilganini sanalar emas, odamlar xotirasida qolgan voqealar köproq aytib beradi.

## OLIB QOÇILGAN «TEZ YORDAM»

Yangi yil kirib kelişiga sanoqli soatlar qolgan, köçalarda bayram şukuhi. Xonadonlarda tökin dasturxon yozilgan, bolalar arça atrofida şodon. Şu payt «Tez yordam» xizmatiga şoşilinç qöngiroq böldi – bir xonadonda bemorning ahvoli oğir ekan.

Şifokorlar manzilga yetib borib, bemorni zambilga olişga kirişişadi. Haydovçi ham kömaklaşadi. Şu orada bir mast erkak «Tez yordam» maşinasiga ötirib, uni olib qoçadi. Avtomobil köçalar böylab katta tezlikda harakatlanar, içida esa hamşira qiz qolib



Zarifboy Eşçonov

ketgandi. Qörquvdan ötakasi yorilayozgan hamşira jonini saqlaş uçun yurib ketayotgan maşinadan özini taşladi. Zarb bilan yiqiliş oqibatida uning oyoği sindi.

Olib qoçilgan maşina esa yölida davom etdi, biroq uzoqqa ketolmadi. Uni ta'qib qilayotgan YPX xodimlaridan biri – mayor Zarifboy Eşçonov oxir-oqibat haydovçini qölga oldi. «Buzoqning yugurgani somonxonagaça», degan naql yangi yil oqşomida yana bir bor tasdiğini topgandi.

## «TIRILGAN MURDA»

Urganç şahridagi yöl-transport hodisasi haqida xabar tuşgaç, mayor Zarifboy Eşçonov voqea joyiga yetib bordi. Yerda ikki kişi yotar, birining ustiga oq mato yopib qöyilgandi.

– Vafot etgan, – deyişdi atrofdagilar.

Zarifboy matoning çetini kötarib, bir qaraşdayoq uning közlarida hayot alomatini payqadi.

– Bu odam tirik! Tezda kasalxonaga olib boringlar! – dedi.

Ölgan deb hisoblangan fuqaro bir neça daqiqadan söng şifoxonada «tirildi». U yana bir kun yo bir yil emas, öttiz yildan ortiqroq umr kördi. Har gal köça-köyda Zarifboyni uçratganida, öşa kunni eslab, xaloskoriga minnatdorlik bildirardi. Qarangki, ba'zan insonning tirik qolişi kimningdir bir soniyalik e'tibor mas'uliyati va kasbiy sezgirligiga boğliq bölar ekan.

## «BOBOMNING BIR HARAKATI – MENING HAYOTIY TANLOVIM»

Ba'zan insonning kasb tanlaşiga birgina voqea sabab böladi. Sobir Eşçonovning nevarasi, katta serjant Oybek Eşçonov uçun ham bolalikdagi unutilmas bir hodisa hayot yölini belgilab bergan.

– Beş-olti yaşarligimda bobom bilan Xivaga ketayotib, yölda avtohalokatga uçragan avtomobilga duç keldik. Bobom darhol maşinani töxtatib, jabrlanganlarga yordamga şoşildi. Avtomobil içida qolib ketgan ayol va




Oybek Eşçonov

erkakni taşqariga olib çiqişga harakat qildi. Men ham yordam berar ekanman, bobomning bu harakatlari yuragimga muhrlanib qoldi. Öşa kundan boşlab içki işlar organlari xodimi bölişga ahd qildim, – deya xotirlaydi.

Bolalikda tuğilgan bu orzu yillar davomida Oybekning qalbida yaşadi. U harbiy xizmatdan qaytgaç, 2008-yilda IIV Akademiyasining serjantlar tarkibini tayyorlaş böyiça oliy kursida tahsil oldi. Bugungi kunda IIB Yöl infratuzilmasini nazorat qiliş bölimi muhandisi lavozimida faoliyat yuritmoqda.

## OQ SOÇLAR ORTIDAGI SIR

2000-yillarda Urganç tumanida bir ayol öldirilgani yuzasidan tezkor-qidiruv tadbirlari boşlanadi. Qotilni aniqlab qölga olişga Sobir Eşçonovning yana bir öğli – Xorazm viloyati IIB Jinoyat qidiruv bölimi katta inspektori, mayor Rözimboy Eşçonov ham jalb qilinadi. Voqea tafsilotlarini



Rözimboy Eşçonov

örganiş davomida marhumaning jasadini «Roza» laqabli ayol taniydi. U marhumani oq soçli yigit olib ketganini ma'lum qiladi. Uşbu ma'lumot Rözimboy Eşçonovning e'tiboridan çetda qolmaydi.

Qidiruv tadbirlariga Urganç tumanidagi «Qönğirot» mahallasi posboni ham jalb etiladi. Uning oq soçlari R. Eşçonovda şubha uyğotadi, biroq mayor gumonini bildirmay, kuzatuvni davom ettiradi. Köp ötmay, posbon yiğilişga soçini ustarada töliq oldirgan holda kelgani tezkor xodimning şubhasini yanada kuçaytiradi. Posbon «Roza»ga körsatilganida ayol uni aynan öşa şaxs ekanini tasdiqlaydi.

Mayor Rözimboy Eşçonovning sinçkovligi, kuzatuvçanligi va tezkor fikrlaşi sabab jinoyat foş etildi.

## BIR SULOLA – BIR XIZMAT

Eşçonovlar sulolasining boşqa vakillari ham içki işlar organlarining turli yönalişlarida faoliyat yuritib, bobolari boşlagan xizmat yölidan ketişmoqda. Xiva xoni saroyidagi qöriqlaş xizmatidan boşlangan bu şarafli yöl bugun yangiça tarzda davom etmoqda.

**Nilufar JABBOROVA,**
**öz muxbirimiz.**
*Xorazm viloyati.*



## Xayrulla LUTFULLAYEV:

# ŞOGIRD IŞTIYOQMAND BÖLSA, USTOZ ÇARÇAMAYDI

**Özbekiston va Qoraqalpoğiston xalq artisti, «Mehnat şuhrati» ordeni sohibi Xayrulla Lutfullayev dilga yaqin qöşiqlari bilan el mehrini qozongan ustoz san'atkor.**

**Suhbatlaşiş maqsadida Özbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga borganimizda, u kişini maşğulot jarayonida uçratdik. Uluğ yoşda ham yoş iste'dodlarga saboq berişdek xayrli yölda sobitqadam san'atkorning bu jonkuyarligi san'atga bölgan çeksiz muhabbati va sadoqatidan darak beradi.**

– «Eski Jöva» bozoridan 300 – 400 metr naridagi Sağbon köçasida joylaşgan uyimizda kiçkina radio ertalabdan keçgaça yoniq turardi. Unda yangragan qöşiqlar ma'qul kelsa, eşitib turib, darhol yodlab olardim. Hamma meni sportçi böladi, derdi, çunki voleybol, futbolni yaxşi öynardim. Maktablararo musobaqalarda jamoamiz bilan doim birinçi örinni olardik. Taniqli aktyor Yodgor Sa'diyev «Paxtakor» jamoasida öynagan bölsa, men bir muddat «Spartak»da töp surganman.

Sport bilan birga, aşula tinglaşni, xirgoyi qilişni ham qöymasdim. Maktabimizda musiqa tögaragi oçilganda, birinçilardan bölib yozildim. Ustozimiz: «Qani kel-çi, qölingdan keladimi?» desa, men «Qöşiq ayta olaman», deganman. Öşa paytda dutor, rubobni ham bemalol çala olardim.

Maktabni bitirgaç, Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga hujjat topşirdim. Imtihonda rubobdan yuqori ball töplab, öqişga qabul qilindim. Şundan keyin sportga qiziqiş bir çetga surilib, qat'iy qaror bilan san'at yöliga tuşdim. Ikkinçi kursda harbiy xizmatga çaqirildim va uç yil harbiy orkestrda xizmat qildim. Qaytib, öqişni davom ettirdim.

**– Kutilmaganda kelgan maşhurlik onlarini qanday eslaysiz?**

– Ha, haligaça köz oldimda. Öşa paytlari televideniyeda yangi yil bazmlari jonli efirda namoyiş etilardi. Çiqasan, deyişdi. «Nimani aytaman?» deb öylanib qoldim. «Bitta qöşiğim bor, eşitib köringlar», dedim katta-katta san'atkorlardan tarkib topgan kengaşga. «Qani, ayt-çi, eşitaylik», deyişdi. «Men sevaman»ni aytdim. Ular tabassum bilan tinglab: «Zör-ku, mana şuni aytasan», deyişdi. Yangi yil kuni jonli efirda kuyladim. Ertasiga öqişga ketayotsam, avtobusda, köçada odamlar: «Keça «Men sevaman»ni şu yigit aytdi-ku», deb gapirişardi. Asta-sekin bu qöşiq mening taşrif qoğozimga aylandi.

**– «Men sevaman» qöşiğining yaratiliş tarixi haqida örtoqlaşsangiz.**

– Uyimizda «Dnepr» degan lentali magnitofon bor edi. Unda köp qöşiqlar yozilgandi. «Men sevaman»ni öşandan eşitib qolganman. Qöşiqni namanganlik Saidxöja Xoldorxöjayev degan hofiz tanbur çalib, oğir ohangda aytgan ekan. Uyda qöşiqni taxminan bir-ikki oy rosa maşq qildim. Uni yengil ohangda, özimdan nolalar qöşib, qaysidir ma'noda yoşartirib, mustaqil örgandim. Qöşiqni televideniyeda aytib çiqqanimdan keyin maşhur böldi.

Aytgança, qöşiq matnini şoir Pölat Mömin yozgan. Şu qöşiq orqali yaqin döst va hamsuhbat bölib qoldik. Yillar davomida uning «Gözal, jonon senmisan?», «Keça gulzordagi dildor», «Aylan-aylan, Gulnora», «Öz makonim Özbekiston», «Davronim soz» singari yuzga yaqin şe'riga kuy bastalab, ijro etdim. Pölat aka Vatan, odob-axloq va muhabbat haqidagi şe'rlarini yozib bölgaç, meni çaqirib körsatar, hatto ozgina xirgoyi ham qilib berardi. Men esa qolganini uyda bastalab, davom ettirardim.



**– Uzoq yillar «Bahor» ansamblida faoliyat yuritdingiz. Bu ijodiy jamoadagi muhit sizda qanday fazilatlarni şakllantirdi?**

– Ijodiy faoliyatimning yorqin lahzalari «Bahor» bilan boğliq. Bu jamoa men uçun oilamdek aziz bölgan. «Bahor» nafaqat ansambl, balki özbek san'atining bayroqdori, milliy madaniyatimizning yuzi edi.

Bir kuni «Bahor» ansambli iştirokidagi katta konsertda qatnaşdim. Qöşiqning boşlanişi ham, tugaşi ham davomli qarsaklar bilan kutib olindi. Sahna ortiga çiqqanimda esa Mukarrama Turğunboyeva bilan yuzma-yuz keldim. «Assalomu alaykum, ustoz!» desam, «Va alaykum assalom, aşulalaringni eşitdim, sen juda «Bahor»bop ekansan-ku. Körinişing ham, tor çalişing ham yaraşadi, ertaga kelgin», dedilar. «Men konservatoriyada öqiyman, opa», desam, «Hammasiga özim yordam beraman», dedilar.

Ustoz haqiqatan ham sözida turdi. Tadbir va xorij safarlari sabab köpinça darslarga borolmasdim. Mukarrama opa qöllab-quvvatlab, «Bahor»ga qatnaşib turişimga yöl oçib berdilar.

Öşa kezlarda «Bahor»ga kirişni orzu qilgan yoşlar köp edi, lekin hammaga ham nasib qilmasdi. Mukarrama opaning öşa konsertdagi birgina e'tibori mening 35 yil mana şu jamoada işlaşimga asos böldi.

**– Çet ellarda betakror özbek san'atini namoyiş etganingizda qalbingizda qanday tuyğular keçgan?**

– Köp davlatlarda katta sahnalarda kuylaganman. Hammasiga hurmat bilan qarayman, ammo bizning tanburimizdagi kuyni, dutorning ikki simidan çiqqan titroqni ular ijro eta olmaydi. Şu ikki sim inson qalbini ham hayajonga, ham quvonçga, ham larzaga soladi. Şuning uçun qayerga bormay, özbek san'atidan faxrlanaman, şu elning farzandi ekanimdan ğururlanaman.

**– «Ustoz–şogird» an'anasi borasidagi fikrlaringiz…**

– Men ustozim Faxriddin Umarov singari yetuk san'atkor bölişga doim intilganman. Musiqa bilim yurtida, konservatoriyada rubobda öqiganim uçun torni yaxşi çalardim. Faxriddin aka: «Sen tor çalişda mendan keyin yangilik kiritgansan. Men dona-dona qilib çalganimda, sen ba'zi joylariga jilo berib çalasan, bu sening yutuğing», derdilar. Bir safar: «Mening qöşiqlarimni yaxşi aytasan, xuddi menga öxşab aytasan, lekin qaçongaça mening qöşiğimni aytasan? Yaxşi çalasan, ovozing ham yaxşi, öz qöşiqlaringni yarat», deb maslahat berganlar.

**– Bugun yoş xonandalarga san'at sirlarini örgatayotgan ustoz sifatida ijroda an'anaviylik va zamonaviylikni uyğunlaştiriş borasida qanday maslahatlar berasiz?**

– Hozir Özbekiston davlat san'at va madaniyat institutida köplab iqtidorli yoşlar tahsil olmoqda. Oralarida allaqaçon közga köringan şogirdlarimiz ham bor. Buning zamirida bitta omil – talabaning iştiyoqi yotadi. Agar yoşlarda kasbga qiziqiş va intiliş kuçli bölsa, ustoz ham çarçamaydi. Ayrim şogirdlar şunday iştiyoq bilan keladiki, darsi yöq paytda ham oldimga kirib: «Ustoz, böş edim, iltimos, meni eşitib köring», deydi. Bu – çin ma'nodagi san'atga çanqoqlik. Bunday yoşlar bilan işlab, ularga töğri yöl körsatiş kerak.

**– Hayotingizda içki işlar organlari xodimlari bilan boğliq yodda qolarli voqealar bölganmi? Soha vakillarining faoliyatiga qanday baho berasiz?**

– Içki işlar organlari xodimlari bilan turli tadbirlarda, xalq sayillarida, töy-haşamlarda tez-tez uçraşib turamiz. Ulardan biror marta noörin muomala yoki e'tiroz eşitmaganman. Xodimlarning kunni tunga ulab, fidoyilik bilan olib borayotgan xizmati tufayli yurtimiz tinç, osmonimiz musaffo, xalqimiz xotirjam va farovon hayot keçirmoqda. Ularning mas'uliyati ham, xizmat maşaqqati ham menga yaxşi taniş. Oğlim Elbekjon ham şu tizimda xizmat qiladi, hozir podpolkovnik. Yoşligida juda mohir doiraçi edi. Keyinçalik «Xodim bölaman, xizmatga kiraman», deb qat'iy qaror qildi. Qiziqişini qöllab-quvvatladik. Içki işlar vazirligi Akademiyasiga öqişga kirganida, qasamyod qabul qiliş marosimida iştirok etganman. Uni qutlab, bağrimga bosib, doim ontiga sodiq qolişini, xizmat burçini vijdonan ado etişini va şarafli kasbda sobitqadam bölişini tayinlaganim keçagidek yodimda.

Tinçligimiz va osoyiştaligimiz posbonlarining mehnatini doimo qadrlayman. Ular doim soğ-omon bölsin, xonadonlaridan qut-baraka va xotirjamlik arimasin. Biz esa san'atimiz bilan xalqimizga ezgulik va xuşkayfiyat ulaşişda davom etaveraylik.

**– Mazmunli suhbatingiz uçun taşakkur!**

**Gulnoza TURĞUNBOYEVA suhbatlaşdi.**

Dolzarb mavzu

# EŞIKNI KIM OÇADI?



**Jasur 26 yoşda. Umrining tört yilini koloniyada ötkazdi, öşa yerda tokarlikni örganib, malaka guvohnomasini oldi. Bugun u qölida kiçik sumkani mahkam tutgança mahallasiga qaytmoqda. Endi bir daqiqa töxtab, u uçun ikki yölni tasavvur qiling.**

Birinçi yöl. Jasur uç-tört joyga iş sörab boradi, ammo hammasida bir xil javobni eşitadi: “Bizga kerak emas”. Mahalla köçasida qöşnilar unga salom berişga ham ikkilanadi, ortidan piçirlaşadi. Bir oydan keyin u öziga şunday deydi: “Men baribir heç kimga kerak emasman”. Yana bir oy ötib, eski tanişlar, eski yöl, eski adaşuvlar boşlanadi.

Ikkinçi yöl. Ustaxona egasi uning guvohnomasiga va Jasurning közlariga qarab: “Ertaga soat sakkizda kel”, – deydi. Qöşni çoyga taklif qiladi, mahalla raisi oilasining holini söraydi. Bir oydan söng Jasur maoşini olib uyga kiradi va ilk bor özini jamiyatning bir bölagi deb his etadi.

Ikkala yöldagi Jasur ham bitta odam – ötmişi ham, guvohnomasi ham bir. Farq faqat bitta: uning oldida eşik oçildimi yoki yöq?

Jasur – şartli nom, ammo uning taqdiri haqiqat. Bunday holatlar har yili yuzlab, insonlarning hayotida yuz beradi. Bu masalada asosiy hal qiluvçi kuç faqat jazoni ijro etiş muassasasi xodimlari emas, balki biz – iş beruvçilar, qöşnilar, mahalla, oila va yaqinlarmiz.

Qonun böyiça jazo muddati tugaganda hisob yopiladi, lekin jamiyat oldidagi sinov davom etadi. Köp hollarda odamni özgartirişga koloniyadagi şaroit emas, ozodlikdan keyingi dastlabki oylar muhumroq ahamiyat kasb etadi. Bu davrda unga işonç bildirildimi yoki orqa ögirildimi?

Bir savol meni öylantirdi: jazoni ijro etiş muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi va kasbga öqitiş nega köpinça bir-biridan uzilgan holda olib boriladi? Birinçisida – ma’rifiy tadbirlar va suhbatlar, ikkinçisida – dastgoh va malaka. Ular ayro keçganda ikkalasi ham samarasiz böladi. Kasb bilan birga mas’uliyat va “Men yurtimga kerakman” degan tuyğu şakllanmasa, malaka guvohnomasi quruq qoğozligiça qoladi. Vatanparvarlik esa, ortida qölga kiritilgan hunar va ertangi kunga işonç bölmasa, balandparvoz şiorga aylanadi.

Xalqaro tajribada ham şu mantiq közga taşlanadi. Norvegiyada jazoni ijro etiş tizimi “normallik prinsipi”ga asoslanadi: xavfsizlik ta’minlanadi, biroq mahkum fuqaro sifatidagi asosiy huquqlari va ta’lim oliş imkonini saqlab qoladi. Finlyandiya dasturida qadriyatlar, ta’lim va kasbiy tayyorgarlik yaxlit tizimga birlaştirilgan. Germaniya qonunçiligida esa jazoni ijro etişning maqsadi mahkumni “ijtimoiy mas’uliyat bilan jinoyatsiz yaşaşga qodir qiliş” etib belgilangan. Maqsad bitta: insonga özini jamiyatning tölaqonli a’zosi deb his qildirmay turib, uni töğri yölga qaytarib bölmaydi.

Yurtimizda ham bu borada muhim amaliy qadamlar taşlanmoqda. “Ikkinçi imkon” milliy loyihasi doirasida mahkumlarni intensiv kurslarda zamonaviy raqamli kasblar va xorijiy tillarga öqitiş, sertifikat beriş hamda işga joylaştirişga kömaklaşiş işlari qilinmoqda. Biroq har qanday taşabbusning haqiqiy bahosi koloniya darvozasidan taşqarida – biz yaşayotgan köça va mahallada namoyon böladi.

Ozodlikka çiqqan inson uçun Vatan mavhum tuşunça emas. U – mahalla raisining samimiy salomi, iş beruvçining “Ertaga kel” degan sözi, qöşnining ğiybatdan tiyilişi va onaning “Bolam, qaytganing yaxşi böldi” degan mehrli ovozidir. Şu bois har birimiz özimizga savol berişimiz kerak: iş beruvçi sifatida hunar va sertifikat bilan qaytgan insonga bir iş örni va sinov muddati bera olamanmi?

Mahalla fuqarosi sifatida xatosining badalini tölagan kişi ortidan gap-söz tarqatişni töxtata olamanmi?

Ota-ona yoki yaqin inson sifatida qaytgan kişini ayblaş örniga unga suyanç böla olamanmi?

Oddiy fuqaro sifatida “Menga nima?” degan befarqlikni “U ham mening yurtdoşim” degan daxldorlikka almaştira olamanmi?

Bu – marhamat emas, balki jamiyat xavfsizligi garovi. Oldida eşik oçilgan odam boşqa eşik izlamaydi; eşigi yopilgan odam esa panoh qidirib, afsuski, yana notöğri yölga kirib qolishi mumkin.

Ertaga yana kimdir koloniya darvozasidan çiqadi. Qölida – kiçik sumka va könglida bitta savol: “Men endi kimman?” Bu savolga javob bizdan boşlanadi. Ozodlikka qaytgan har bir şaxs uçun bugundan boşlab “Sen özimiznikisan, bizga keraksan!” deb eşiklarni oçaylik.

**Tojixöja OSPANOV,**
**IIV huzuridagi JIED 13-sonli JIEK boşliğining örinbosari, mayor.**

Bilib qöygan yaxşi

# HUŞYOR VA SERGAK BÖLING!

**Hayotda şunday qoidalar borki, ularni nafaqat biliş, balki unga qat’iy amal qiliş lozim. Yöl harakati qoidalari ham ana şunday tartib-amallar sirasiga kiradi. Afsuski, hamma ham bu qoidalarga töliq rioya qilavermaydi. Masalan, yölni kesib ötiş bilan boğliq qoidalarda piyodalar öşa payti telefondan foydalanişi, gaplaşişi, audio eşitişi, xabar yozişi yoki videolar tomoşa qilişi taqiqlangani keltirilgan. Garçand, bu holatlar kimgadir oddiy holdek tuyulsa-da, unga amal qilmaslik, bir lahzada baxtsiz hodisaga sabab bölişi mumkin.**

Agar şunday qoidabuzarlik qayd etilsa, Ma’muriy javobgarlik töğrisidagi kodeksning 138-moddasi birinçi qismiga köra, ma’muriy ogohlantirişga yoki bazaviy hisoblaş miqdorining uçdan bir qismi miqdorida jarima solişga sabab bölişi belgilangan.

Şu bois, yöllarda doimo huşyor bölib, harakat vaqtida telefondan foydalanişni töxtating. Svetoforning ruxsat beruvçi işorasiga amal qiling. Yölni kesib ötişdan oldin yaqinlaşayotgan transport vositalarining oraliq masofasi va tezligini baholang. Farzandlaringizga ham yölni kesib ötişda telefonga çalğimaslikni örgating.



Şuni unutmangki, harakat vaqtida bölgan telefon qönğiroğiga yölni kesib ötganidan keyin ham javob bersa böladi. Kimdandir yuborilgan xabarni xavfsiz hududga ötib olganingizdan keyin ham öqiş mumkin. Negaki yöldagi bir lahzalik e’tiborsizlik sizga juda qimmatga tuşişi, oğir oqibatlarga olib kelişi mumkin. Vaqtni esa ortga qaytarib bölmaydi.

Xullas, yöllarni kesib ötayotganda huşyor böling. Öz hayotingizni özingiz asrang. Çunki u har kimning öziga kerak. Uni asraş esa öz qölingizda!

**Xöja Ahmed MATYOQUBOV,**
**IIV Yuridik ta’minlaş boşqarmasi yetakçi yuriskonsulti, kapitan.**




# GRIPPDAN SAQLANING

**Gripp tez tarqaladigan mavsumiy yuqumli kasallik bölib, asosan, kuz va qiş oylarida köp uçraydi. U atrofdagi soğlom odamlarga, asosan, bemor aksirganda, yötalganda va gaplaşganda havo-tomçi yöli bilan yuqadi. Birinçi alomatlari paydo bölgunga qadar bir neça soatdan 3 kungaça vaqt ötadi.**

Gripp kasalligiga barça yoşdagilar çalinişi mumkin. Ayniqsa, zaif va nimjon bolalar, keksa yoşdagi kişilar, homilador ayollar hamda surunkali kasalligi bor, immuniteti past kişilarda tez rivojlanadi va oğir ötadi.

Bu xastalik nafas yöllarining yalliğlanişi bilan boşlanib, keyinçalik tana harorati 38–40 darajaga kötarilişi, boş va tomoq oğrişi, burun bitişi va oqişi, yötal, muşak oğriqlari, holsizlik, iştahasizlik, ayrim hollarda qayt qiliş kabi alomatlar bilan keçadi. Kasallik yengil, örta va oğir şakllarda namoyon böladi. Uning eng xavfli asoratlari zotiljam (pnevmoniya), meningit, meningoensefalit, otit, sinusit, nefrit, piyelonefrit rivojlanişi bölişi mumkin. Ba'zan grippning yengil şakli bilan oğrigan bemorlar atrofdagilar uçun köproq xavf tuğdiradi, çunki ular aksariyat hollarda uyida davolanmay, öz holatiga yetarli darajada e'tibor qaratmaydi va infeksiya manbayiga aylanadi. Şu holatda ularni jamoat joylarida, transportda, öqiş va iş joylarida uçratiş mumkin.

Kasallik yuqişi va tarqalişining oldini oliş uçun kuz-qiş mavsumida havo sovuşini inobatga olgan holda quyidagi tavsiyalarga amal qiliş maqsadga muvofiq:

** grippga qarşi emlaniş;*

** ob-havoga mos kiyiniş;*

** öz vaqtida ovqatlaniş va yetarliça dam oliş;*

** xonalarni muntazam şamollatiş va nam latta bilan tozalov işlarini olib boriş;*

** toza havoda köproq sayr qiliş;*

Özingiz va yaqinlaringiz salomatligini asraş uçun gripp va ötkir respirator virusli infeksiyalarning ilk alomatlari sezilgan zahoti şifokorga murojaat qiling. Grippga çalingan kişilarga köproq suyuqlik içiş, quruq mevalar yoki na'matak damlamasi, tabiiy şarbatlar hamda oson hazm böladigan oqsil va vitaminlarga boy taomlarni iste'mol qiliş tavsiya etiladi. Kasallik davrida jamoat joylarida bölmaslik, yötalganda va aksirganda oğiz-burunni römolça bilan tösiş muhimdir. Özboşimçalik bilan davolaniş oğir asoratlarga olib kelişini unutmang!

Kasallikning oldini oliş uçun tanani çiniqtiriş, badantarbiya bilan muntazam şuğullaniş, oçiq havoda sayr qiliş, öz vaqtida ovqatlaniş alohida ahamiyatga ega. Kasallik avj olgan (noyabr, dekabr, yanvar, fevral) oylarda nafaqat aholi bilan köp muloqotda böladigan soha xodimlariga, balki barça fuqarolarga tibbiy niqob taqiş tavsiya etiladi.

Jahon soğliqni saqlaş taşkiloti epidemiologik vaziyatdan kelib çiqib, 2026–2027-yil mavsumi uçun aynan uç valentli gripp vaksinasini qöllaşni tavsiya etgan. Vaksinadan söng himoya immuniteti şakllanişi uçun örtaça 2 hafta vaqt ketadi, şu bois emlaşni gripp mavsumi boşlanişidan oldin ötkaziş maqsadga muvofiq.

**Botirbek FAZILOV,**
**IIV Tibbiyot boşqarmasi SENBM bölim boşliği, podpolkovnik.**

**BMT taşabbusi bilan 1998-yildan buyon har yili 1-dekabr – Butunjahon OITSga qarşi kuraşiş kuni sifatida nişonlanadi. Bu sana jamoatçilikni mazkur xatarga qarşi birlaştiriş, aholining tibbiy madaniyatini yuksaltiriş hamda OIV bilan yaşayotgan insonlarga nisbatan bağrikenglik va qöllab-quvvatlaş muhitini qaror toptirişga çorlovçi muhim kundir.**

# SOĞLOM KELAJAKKA TAHDID

**KASALLIKNI ANGLAŞ – HIMOYANING BIRINÇI BOSQIÇI**

Jamiyatda OIV va OITS tuşunçalari köpinça çalkaştiriladi. OIV – inson immun tizimini zaiflaştiruvçi, kasallik qözğatuvçi virus, OITS esa uşbu virusning organizmda uzoq vaqt nazoratsiz rivojlanişi va öz vaqtida davolanmasligi oqibatida yuzaga keladigan sönggi bosqiçdir.

Şuni ham unutmaslik kerakki, OIV yuqtirgan har bir insonda OITS rivojlanavermaydi. Tibbiyot taraqqiyoti tufayli bugungi kunda OIV infeksiyasi ilgari qaralganidek «sözsiz hukm» emas. Zamonaviy antiretrovirus terapiya (ARVT) vositalari yordamida virus bilan yaşayotgan insonlar ham uzoq, sifatli va faol hayot keçirişlari, soğlom farzand dunyoga keltirişlari mumkin. Buyurilgan dorilarni öz vaqtida qabul qilib yurgan bemorlarda virus köpayişi töxtatiladi va ularda infeksiya OITS bosqiçiga ötmaydi. Biroq buning eng asosiy şarti – infeksiyani öz vaqtida aniqlaş va muolajalarni muntazam davom ettirişdir.



**YUQIŞ YÖLLARI VA ASOSSIZ XAVOTIRLAR**

Virus faqat ma'lum yöllar orqali yuqadi:

** qon orqali: sterillanmagan tibbiy va kosmetik asbob-uskunalar, umumiy şpritslardan foydalanganda hamda tekşirilmagan qon quyilganda;*

** jinsiy yöl bilan: himoyalanmagan har qanday jinsiy aloqa natijasida;*

** vertikal yöl orqali: OIV infeksiyali onadan homiladorlik, tuğuruq yoki emiziş davrida bolaga ötişi mumkin.*

Şuni alohida ta'kidlaş lozimki, OIV qöl berib körişiş, quçoqlaşiş, bir idişdan ovqatlaniş, havo-tomçi yöli, suziş havzalari yoki haşarotlar çaqişi orqali yuqmaydi.

Kasallangan insonlarni kamsitiş yoki ulardan yuz ögiriş emas, aksinça, ularga ma'naviy tirgak böliş har birimizning insoniy burçimizdir.

**ERTA UÇUN UMUMIY MAS'ULIYAT**

OITSga qarşi kuraşiş faqat tibbiyot xodimlarining vazifasi emas. Bu har bir oila, ta'lim muassasasi va keng jamoatçilikdan doimiy mas'uliyatni talab etadi. Yoşlar ongiga soğlom turmuş tarzini singdiriş, ularga töğri va işonçli tibbiy ma'lumotlarni yetkaziş, zararli odatlardan yiroq bölişni örgatiş – kelajak avlod salomatligining mustahkam kafolatidir.

Har birimiz öz salomatligimizga e'tiborli bölişimiz, muntazam tibbiy körikdan ötib turişimiz lozim. Zero, xastalikni davolagandan köra, uning oldini olgan afzal.

Soğlom turmuş tarzini tanlang va özingiz hamda yaqinlaringiz salomatligini asrang!

**Farrux RÖZMETOV,**
**IIV Tibbiyot boşqarmasi SENBM OITSga qarşi kuraşiş guruhi katta mutaxassis şifokor-epidemiologi, kapitan.**

# ENG YAXŞI KIÇIK OFITSER

**Mohinur bolalik davrida toğasining IIV Akademiyasida qasamyod qabul qiliş marosimida iştirok etgan edi. Akademiyaning saf maydoni, forma kiygan yoşlar unda katta taassurot qoldirgandi. Öşa kuni uning qalbida yangi orzu niş urdi. Orzu röyobga çiqdi: IIV Akademiyasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi» yönalişida tahsil oldi. Xizmat faoliyatini voyaga yetmaganlar masalalari böyiça inspektor-psixolog lavozimida boşlagan Mohinur 2024-yilga qadar yoşlar va ösmirlar bilan işladi.**



Ayni paytda kapitan Mohinur Murodova Jizzax viloyati IIB Migratsiya va personallaştiriş boşqarmasining xorijiy fuqarolar bilan işlaş guruhida muhim topşiriqlar böyiça inspektor lavozimida xizmat qilmoqda. Xorijiy fuqarolarning hujjatlari, huquqiy maqomi, ularning Özbekiston hududida bölişi va harakatlanişi bilan boğliq masalalarni hal etish, şuningdek, fuqarolar murojaatlarini körib çiqiş jarayonida xuşmuomalalik, professionallik bilan iş yuritadi.

Lavhamiz qahramoni suziş böyiça 4 karra Özbekiston çempioni, yengil atletika böyiça mamlakat çempionati sovrindori. Toşkent xalqaro marafonida 5 kilometr masofada ğoliblikni qölga kiritgan. 2022-yilda «Men – ğolib» musobaqasida ikkinçi örinni egallagan. Ayni paytda Içki işlar vazirligining «Tömaris» terma jamoasi a'zosi.

Mohinurning samarali mehnati bir qator mukofotlar bilan e'tirof etilgan. Içki işlar vazirligining qöl soati, «Yoşlar fidoyisi» kökrak nişoni hamda viloyat IIB boşliğining faxriy yorliqlari uni yanada rağbatlantirdi. Yaqinda u «Kasbiy olimpiadasi»da 1-örinni qölga kiritdi hamda «Eng yaxşi kiçik ofitser» deb topildi.

– Sevimli maşğulotimdan yana biri – kitob öqiş. Har oy kamida bitta kitob mutolaa qilişni maqsad qilganman. Ayni paytda Jojo Moyesning «To seni topgunimça» asarini öqiyapman. Kitob nafaqat tafakkurni boyitadi, balki kundalik taşvişlardan biroz uzilib, ma'naviy hordiq çiqarişga ham yordam beradi, – deydi lavhamiz qahramoni.

**Muqaddas SAPAROVA,**
**öz muxbirimiz.**
*Jizzax viloyati.*

---

**Buxoro şahar IIOFMB 2-sonli IIB xotin-qizlar masalalari böyiça inspektori, leytenant Munavvara Rahmatova xizmat faoliyati davomida xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiliş, oilalarda soğlom muhitni qaror toptiriş, tazyiq va zöravonlikning oldini oliş hamda oğir hayotiy vaziyatga tuşib qolgan ayollarni qöllab-quvvatlaşga alohida e'tibor qaratmoqda.**

# XIZMATDA HAMKOR, SPORTDA HAMNAFAS



– Xizmat faoliyatimda xotin-qizlarning muammolarini öz vaqtida aniqlaş va ularga yeçim topiş muhim örin tutadi. Har bir ayolning huquqlari himoya qilinişi, oilalarda osoyiştalik hukm surişi va farzandlar tinç muhitda voyaga yetişiga hissa qöşiş men uçun katta ahamiyatga ega, – deydi leytenant M.Rahmatova.

Lavhamiz qahramonining turmuş örtoği Firdavs Yoqubov viloyat IIB JXX JTSB Patrul-post xizmati batalyoni inspektori lavozimida faoliyat yuritadi. Mas'uliyatli xizmat bilan bir qatorda, er-xotin yengil atletika böyiça Özbekiston çempionlari hisoblanadi. Ular sport musobaqalarida erişayotgan yutuqlari orqali içki işlar organlari şa'ni va şarafini munosib himoya qilib, sohada sportni rivojlantiriş hamda yoşlarni soğlom turmuş tarziga keng jalb etişga munosib hissa qöşib kelmoqda.

**Mirzoqul AHADOV,**
**öz muxbirimiz.**
*Buxoro viloyati.*

# YUKSAK MARRALAR SARI

**Qaşqadaryo viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvçi safarbar otryadi 3-işğol qiliş guruhi katta mutaxassis-öqçisi, kiçik serjant Jaloliddin Qurbonmurodov nafaqat öz kasbining fidoyisi, balki mohir sportçi sifatida ham hamkasblariga örnak bölib kelmoqda. U xizmat vazifalarini sidqidildan bajariş barobarida dzyudo bilan muntazam şuğullanib, respublika miqyosidagi nufuzli musobaqalarda yuqori natijalarni qayd etmoqda.**



Jumladan, 2019-yili Navoiy va Surxondaryo viloyatlari mezbonlik qilgan Özbekiston çempionatining 90 kilogramm vazn toifasida kumuş medalni qölga kiritdi. Oradan ikki yil ötib, Namanganda bölib ötgan mamlakat birinçiligida u şohsupaning eng yuqori poğonasiga kötarildi. 2023-yilda Qoraqalpoğistonda ötgan çempionatda 3-örinni egallagan kiçik serjant ötgan yili Qarşi şahrida yana bir bor tengsiz ekanini isbotlab, oltin medalga sazovor böldi. Joriy yil sentabr oyida Toşkent şahrida Içki işlar vazirligi kubogi uçun keçgan bahslarda esa bronza medali bilan taqdirlandi.

Bu muvaffaqiyatlar zamirida temir intizom, yuksak iroda va öz ustida tinimsiz işlaş turibdi. Kiçik serjant Jaloliddin Qurbonmurodovning ğalabalari yoş xodimlarni jismonan çiniqişga, soğlom turmuş tarziga oşno bölişga ruhlantirmoqda. U kelgusida ham xizmat burçini şaraf bilan ado etib, sport maydonlarida bundan-da yuksak marralarni zabt etişni maqsad qilgan.

**Sodiq RAHIMOV,**
**öz muxbirimiz.**
*Qaşqadaryo viloyati.*

# LITSEY JAMOASI ĞOLIB



Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganç davlat universiteti akademik litseyi taşabbusi bilan viloyatdagi akademik litsey öquvçilari örtasida mini-futbol musobaqasi taşkil etildi.

Bellaşuvda Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi Xorazm akademik litseyi jamoasi yuksak sport mahorati, jamoaviy birdamlik, qat'iyat va ğalabaga bölgan intilişini namoyon etib, faxrli 1-örinni egalladi.

**Nilufar JABBOROVA.**
*Xorazm viloyati.*

# Skanvord

POSTDA
НА ПОСТУ * AT THE POST

Iş quroli
Kuraş atamasi
Haşarot
Mitti mult qahramon
Millat
Köngli şikasta
Ğalla / Hayot
Hamişa yaşil daraxt
Şahar (Fransiya)
Hayo
Ilon / Koptok
Pul
Şirinlik turi
Arab harfi
Asalxör hayvon
Toğ tizmasi
Dahşatli ilon
... Şnayder (aktrisa)
Yirtqiç hayvon
... Gorkiy (adib)
Nota
Sölim göşa
Tibbiyot paxtasi
Ötinç
Bilan
Davlat (Afrika)
Nizom
Hammom xodimi
Urf
Mohir
Novvoy anjomi
Malham
Saroy
Afrika ovi
Silvestr ... (Aktyor)
Savob, mukofot
Buva
Avtomarka
Şoti
... Kapur (aktyor)
Mabodo
Korxona
Sifatsiz mol
"Jiguli"
Nazar
Yo, piray
Kafe
Dengiz (Ukraina)
Işva
Sözana, popop
Avtomarka
"Çoli-quşi" (obraz)
Hurriyat
Yaşirin
Ba'zan
Qabr
Rom
Quş
Kasb ixtisosi
Höl meva
Matonat
Asror ... Çexov
Şahar (Qrim)
Yovvoyi hayvon
Xilvat
Yönaliş
Arab harfi / Uy jihozi
Dori ölçovi
Kasallik
Bilim darajasi
Çeçak
Suv yöli
Demi ... (Aktrisa)
Kas
Uy jihozi
Quriliş aşyosi
Quş turi
Urf / Murabbiy
Tuzuvçi: Mahfuza Ğulomova
Şahar (Rossiya)
Sekin / Yumşoq





Said AHMAD

# YÖĞON TEPA



Bugun şanba, idora xodimlariga maoş berilayapti. Odatda idora boşliqlarining hurmati uçun kassir kabinetga vedomost kötarib kiradi.

Qodirov kassir uzatgan pulni sanamay, stol tortmasiga solar ekan, dedi:

– Nuraliyevga ayting, kirsin!

Sal ötmay, boş buxgalter Nuraliyev kirdi.

– Menga qarang, bugun bir otamlaşaylik. Maoşni bölsa, oldik. Pul xotinning qöliga tegdimi, tamom. Paka qölimizdaligida yayrab olaylik.

Bu gap Nuraliyevga ham yoqdi. Qodirov stol yonidagi tugmani bosdi. Sekretar qiz kirdi.

– Apsamatov bilan Sobirovni darrov çaqiring!

Apsamatov bilan Sobirov uzunqisqa bölib kirib kelişdi.

– Qani, – dedi Qodirov, – olti-oltidan çözinglar. Yöğon tepaga borib, bir oşxörlik qilamiz.

Apsamatov jon deb turgan ekan, darrov olti sömni stolga taşladi. Ammo Sobirov gardanini qaşib turib qoldi.

– Böling, böling, – dedi Nuraliyev, – munça lattaçaynarsiz, olti söm kimni öldiribdi?

– Olti söm heç kimni öldirmaydiyu, ammo kelinigiz qança maoş olişimni toçniy biladi. Undan taşqari, xotinsiz biron joyga borolmayman.

– E, sadqayi erkak keting, qöying bu gaplarni.

Sobirov jonidan suğurgandek qilib, olti sömni qöli qaltirab stolga qöydi. Qodirov şofyorni çaqirib, xarajatga yubordi. Iş soati tugaşi bilan tört kişi Yöğon tepaga qoçişga ahd qilişdi.

Şundoq böldi. Yögon tepa viloyatda eng salqin, eng xuşmanzara joy. Tört ulfat rosa yayraşdi. Şofyor oşga usta edi, har bitta guruç özi örmalab oğizga kirib ketaman deydi. Salatni aytmaysizmi, kök qalampir aralaşgan salat dunyoda yagona bölsa ajab emas. Oşga bostirilgan sarimsoqpiyoz yangi söyilgan qöyning iligidan afzal bölsa afzalki, kamligi yöq.

Xullasi, tört ulfat keç soat ön bir yarimgaça maişat qilişib, ön ikkidan sal oşganda şaharga qaytişdi. Bunday paytlarda boşliqlar juda saxiy bölib ketişadi. Qodirov ham şunday fazilatdan xoli emas. Şeriklarini bir-bir eşiklari oldiga taşlab, uyiga ötib ketdi. Ajoyib oş uçun şofyorga rahmat aytib, özi ham darvozasi oldida tuşib qoldi. Eşikni qoqdi. Içkaridan javob bölmadi. Yana eşik qoqdi. Qöşnilar nima gap deb yugurib çiqişdi-yu, Qodirovning xotini çiqmadi. Yarim soat eşik qoqdi. Xotini eşik orqasida turgan ekan, axiyri ovoz berdi.

– Nega eşikni oçmaysan, majlisdan öladigan bölib kelsam ham, şunaqa qilasanmi?

– Boradigan joyingizga boravering. Oş yegan joyingizda yotişga joy qilib berişmadimi? Öşaqqa borib yoting!

Qodirovning dami içiga tuşib ketdi. Ança vaqtgaça «ğiring» deyolmay turib qoldi.

– Qöy, xotin, qöni-qöşnilarning oldida şarmanda qilma. Uyda bafurja gaplaşamiz.

Xotin javob qilmadi. Oyoq tovuşining uzoqlaşgani eşitildi. Ana şundan keyin Qodirov yana yarim soatça eşik taqillatdi, bölmadi. Orqasiga qaytdi. Maşina ketib bölgan, soat birdan oşib avtobuslar ham siyraklaşib qolgandi. Idora, öhhö, qança joyda. Qodirov soat ikki yarimlarda idoraga qaytib keldi. Qarasa, kabinetining köça tarafga qaragan derazasidan yoruğ tuşib turibdi. Uborşitsa pol yuvayotgan bölsa kerak, deb öyladi. Qorovul keling aka, deb darvozani oçdi.

– Otçyotga tayyorlanadigan edim, şu yerda tinçgina...

Kabinet eşigini oçiş bilan hayron bölib töxtadi qoldi. Boş buxgalter Nuraliyev yeçinmay, divanga çalqança yotib olgan, kabinetni boşiga kötarib xurrak tortardi. Nima balo, uyiga taşlab kelgan edim-ku, deb hayron böldi Qodirov. U qorovuldan plan bölimining kalitini söradi.

– Oçiq, aka, oçiq. Apsamatov inim divanda yotibdilar.

– Kadrlar bölimi-çi?

– U yer ham oçiq. Sobirov yotibdi.

Qodirov nima qilişini bilmay, garajning kalitini söradi.

– U yer ham band, şofyoringiz «Volga»da yotibdi.

Qodirov qaqqaygança turib qoldi.

– Menga qarang, ota, – dedi u qorovulga. – Sizga javob. Uyingizga borib, yota qoling. Biz bugun tong otar otçyot tuzamiz. Körpa-yostiqni yiğmang. Çarçaganimda men yotaturaman.

– Umringdan baraka top, bolam. Kampirim otdixing qaçon, deb söra-yotgan edi.

Qorovul çol duo qilib, uyiga jönab qoldi. Qodirov uning örniga yonboşladi.

Tört oşxör idorani boşlariga kötarib, xurrak tortişardi. Ayniqsa, boşbux Nuraliyev karnayga öxşatib tortar ekan. Bu keça tört oşxörning xotini xafa, birgina qorovul çolning xotini xursand edi.

## HAMIŞA ÖZINGDAN BOŞLA

Bir er-xotin yangi uyga köçib ötişdi. Ertalab uyğonişi bilanoq xotini derazadan taşqariga qaradi va yuvilgan kirlarini quritiş uçun dorga osayotgan qöşni ayolga közi tuşdi.

— Qarang, uning kirlari naqadar kir ekan, — dedi u eriga.

Ammo eri gazeta öqib ötirar va bu gapga unçalik e’tibor bermadi.

— Hoynahoy, sovuni sifatsiz bölsa kerak yoki umuman kir yuvişni bilmaydi. Unga buni örgatib qöyiş kerak ekan.



Har safar şunday bölardi: qöşni ayol kir yoyganida, xotini ularning kirligidan hayron qolaverardi.

Ajoyib tonglarning birida u derazadan qarab, xitob qilib yubordi:

— Iye! Bugun kirlari top-toza-ku! Nihoyat, kir yuvişni örganibdida!

— Yöğ-e, — dedi eri xotirjam, — şunçaki men bugun ertaroq turib, derazani artib çiqdim.

Tilbilim



## Çinni idişmi yoki kaptar?

Tilimizda yozilişi bir xil, ammo ma’nosi har xil bölgan sözlar juda köp. Masalan, **«juvona»** kaptarning bolasi. Bu ma’noda asosan Farğona tomonlarda qöllanadi. Vohaliklar esa hali yetilmagan novvosçani ham juvona deydi. Juvona qanotlari töliq çiqib, uçirma bölgandan keyin kaptar deyiladi.

Özbeklar orasida kaptar boquvçilar köp. Ularning tilida kaptarning rangi, zotiga qarab turliça nomlanadi. Masalan, oppoq kaptarlar – **gulibodom,** qarğaga öxşab qop-qora rangdagilari – **zoğ,** oq-kök rangli kaptarlarni – **çovkar** yoki **kökça,** tanasi qora, boşi oq ranglilarini – **soç,** tanasi oppoq, boşi va böynida qizil doğlari bor kaptarlarni esa **çin**ni deyiladi. Lekin köpçiligimiz çinni deganda, çinni idişlarni tuşunamiz.

Yana bir qiziq söz – **«jinqarça»** «juda kiçkina» ma’nosida işlatiladi. Lekin bu söz aslida çittak degan quşning yana bir nomi ham ekan.

**Şuhrat RÖZIYEV tayyorladi.**

# ISM – ÖZLIKNING BIR BÖLAGI

## «Mening bobom Maksim emas!..»

**Maqolam boşida aytib qöyay: men millatçi emasman. Lekin har bir işda milliylik ustuvor bölişiga intilaman. Bu – mening şaxsiy e’tiqodim. Çunki millatga xos qiyofa, til va ism-şarif insonning özligini belgilaydigan asosiy jihatlardan hisoblanadi. Afsuski, tarixda şunday bir davrni boşimizdan keçirdikki, hatto ism-şariflarimiz ham özgartirilib, milliylikdan yiroqlaştirildi.**

Içki işlar organlarida faoliyat yuritgan ustozimiz bilan suhbat davomida uzoq yillardan beri söraşga botina olmagan savolimni berdim:

– Millatingiz özbekmi?

– Ha, albatta!

– Nega bölmasa familiyangiz özbekça emas?

Ustozim kulib yubordi:

– Bobomning asl ismi Maxsum bölgan. Lekin unga pasport berişayotganda ismini xato yozib qöyişgan ekan. Şu tariqa butun bir avlod Maksimov bölib qolganmiz.

Aytiş joiz, ism-şariflar ham ma’naviyatning bir körinişini özida ifoda etadi. Ularning har birida öziga xos ma’no, tarix va mazmun mujassam. Yozilişi yoki talaffuzi özgarişi natijasida asl ma’no buzilişi, milliy özlikka xos jihatlar yöqolişi mumkin. Masalan, Maxsum sözi özbek tilida «uluğ ustoz» ma’nosini bildirsa, Maksim ismi «eng katta» mazmunini beradi. Şuningdek, Ibrohimning Ibragimga, Ğofurovning Gafurovga, Muhammadning Maxammad yoki Mamatga aylanib ketişi natijasida ismlarimizning asl şakli va ulardagi ayrim ma’noviy xususiyatlar yöqoldi. Bu faqat harflarning almaşişi emas, balki tarixiy xotira va milliylikka daxldor masaladir.

– Mustaqillikka erişganimizdan söng davlatimiz bunday xatolarni tuzatişning huquqiy asoslarini yaratdi, – deydi Andijon viloyati Adliya boşqarmasi Huquqiy axborot şöbasi boşliği Umidjon Hakimov. – Xususan, Özbekiston Respublikasining Oila kodeksi, «Davlat tili töğrisida»gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etiş qoidalarida bu boradagi huquqiy asoslar belgilangan. Qonunçilikda nazarda tutilgan tartibda fuqarolar ismi va otasining ismini özgartiriş uçun murojaat qilişlari mumkin. Bunga yozuvdagi xatolarni tuzatiş, ism-şarifning milliy şaklini tiklaş, nikoh bilan boğliq holatlar yoki boşqa şaxsiy sabablar asos bölişi mumkin.




Masalaga kengroq nazar taşlasak, ism va şarif faqat rasmiy identifikatsiya vositasi emas, balki insonning tarixiy xotirasi va ma’naviy dunyoqaraşi bilan ham boğliq. Şu nuqtayi nazardan, köpçilikning ism-şarifida hali-hanuz «sovetça izlar» saqlanib qolgani kişini öyga toldiradi.

– Ism-şariflarda milliylikni tiklaş faqat til masalasi emas, balki ma’naviyat masalasidir, – deydi filologiya fanlari nomzodi Nilufar Qosimova. – Insonning ismi özining asl şaklida yozilişi uning milliy özligini anglaşi va milliy muhitda özini erkin his qilişiga xizmat qiladi. Bu, şuningdek, avloddan-avlodga ötadigan ma’naviy merosning bir qismidir.

– Mening familiyam pasportimda Gaziyev deb yozilgan, – deydi Qörğontepa tumanida yaşovçi mehnat faxriysi Abdurahmon Gaziyev. – Aslida, Ğoziyev bölişim kerak. Çunki bobomning ismi Ğozivoy bölgan. Şu familiyam tufayli köpçilikka kulgi bölganman. Öz vaqtida uni Ğoziyevga almaştirmoqçi ham bölganman. Ammo öşa paytlarda bunga ruxsat berilmagan edi.

– Mening familiyam pasportimda Taxtayev deb yozilgan, – deydi suhbatga qöşilgan yana bir tanişim. – Uni özgartiriş niyatim yöq. Çunki Töxtayev eski zamonning ismiga öxşaydi. Taxtayev esa menga jarangdorroq tuyuladi.

Xulosa şuki, ism-şarif masalasi har kimning şaxsiy tanlovi va huquqi bilan ham boğliq. Biroq öz ism-şarifimizga beparvo qaraş, «Şu bilan nima özgarardi?» degan munosabat milliy tariximiz va ma’naviy merosimizga nisbatan e’tiborsizlikka olib kelişi mumkin. Har bir tuzatilgan ism milliy qadriyatlarimizni asraş yölidagi bir qadam. Bizga berilgan ism ota-bobolarimiz xotirasiga sadoqat ramzi, ma’naviyatimiz ifodasi, milliy özligimizning bir bölagi.

**Saminjon HUSANZODA,**
**öz muxbirimiz.**

*Andijon viloyati.*







MUASSIS:
ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI IÇKI IŞLAR VAZIRLIGI

Boş muharrir
podpolkovnik
Xurşidbek RÖZIYEV

Boş muharrir örinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas’ul muharrirlar
Erkin SATTOROV
Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatçilar
Adolat FAYZIYEVA
Yuliya MUSTAFAYEVA

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Obuna masalalari böyiça:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami
23402000300100001010
Bank kodi 00014
Özbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ğaznaçiligi
Şaxsiy h/v
46001086026287703110117900 3
STIR 200637499.

Gazeta Özbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan röyxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toşkent şahri, Şota Rustaveli 1-berk köçasi 9-uy.

Buyurtma № 3560.
Bosiliş – ofset usulida.
Biçimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
50498 nusxada çop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Taşkilotlar uçun – 366.
Bosişga topşiriş vaqti – 22.00.
Bosişga topşirildi – 21.00.
Sotuvda kelişilgan narxda.

“Kolorpak” MÇJ bosmaxonasida çop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangişahar köçasi 1A-uy.

Tahririyatga kelgan qölyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Naşrimizdan köçirib bosilganda manba körsatilişi şart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.